
"ORGANIK REAKSIYALAR MEXANIZMI"

fani bo'yicha ma'ruzalar matni



UDK: 547.7.(075)

BBK: 24.2я73

O-64

Organik kimyo nazariy asoslari

Uslubiy qo'llanma. –Samarqand: SamDU nashri. 2012. –73 bet

Davlat ta'lim standarti dasturi asosida yozilgan mazkur uslubiy qo'llanma organik kimyo fanining rivojlanish tarixi, organik moddalarning tuzilish nazariyasi, to'yingan uglerod atomida o'rin olish reaksiyalari, to'yimagan birkmalarga birikish reaksiyalari, siklobirikish reaksiyalari va aromatik qatorda o'rin olish reaksiyalari kabi dolzarb mavzularga bag'ishlangan.

Ushbu uslubiy qo'llanma universitet kimyo fakulteti organik kimyo fani bo'yicha mutaxassislikdan o'tayotgan talabalar uchun mo'ljalangan. Undan shuningdek organik kimyo – bo'yicha magistratura va aspirantura yo'nalishida bo'lgan izlamchilar ham foydalensalar foydadan holi bo'lmaydi.

Tuzuvchilar

dots. M. Alimova
Q.O. Zohidov

Ma'sul muharrir

dots. M.A. Solexova

Taqrizchilar

dots. N.Q. Xolmirzaev
dots. S.S. Yusupov

So'z boshi

Ma'lumki organik kimyo fanining jadal rivojlanib horayotganligi ko'p jihatdan organik birikmalarining kimyoviy tuzilish nazariyasining yaratilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Organik kimyoning yetakchi darg'alaridan bo'lган rus olimi A.M.Butlerov tomonidan yaratilib (1861), keyinchalik uning shogirdlari tomonidan yanada rivojlantirilgan mazkur nazariya organik kimyo osmonida yo'lchi yulduz bo'ldi desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Bu nazariyani va organik kimyoni nazariy asoslarini bilmay turib kimyogar –organik hech qanaqa yutuqlarga erisha olmaydi. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda va davlat ta'limi standartlari dasturiga tayangan holda biz organik kimyo nazariy asoslariga bag'ishlangan ushbu uslubiy qo'llanmani yozishga jazm qildik.

Uslubiy qo'llanmamizning birinchi mavzusi kimyoviy tuzilish nazariyasining tarixiga bag'ishlangan bo'lib, biz unda organik kimyo fani bosib o'tgan sermashaqqat va sharaflı yo'lni baqadri imkon ochib berishga harakat qildik. O'tmishtda o'tgan kimyogar olimlar tomonidan yaratilgan nazariyalar, ularning yutuq va kamchiliklari ko'rsatilib, rus olimi A.M. Butlerov tomonidan yaratilgan organik moddalarining kimyoviy tuzilish nazariyasi bat afsil yoritildi. Ushbu mavzudan shuningdek uglerod atomi elektron qobig'ining tuzilishi to'g'risida kvanto-mexanik tushunchalar va moddalar reaksiyon qobiliyatining ularning kimyoviy tuzilishiga bog'liqligi to'g'risidagi elektron tushunchalar ham o'rın olgan.

To'yingan uglerod atomidagi o'rın olish reaksiyalariga bag'ishlangan ikkinchi mavzuda o'rın olish reaksiyalarining turlari ko'rsatilib, dastur bo'yicha nukleofil o'rın almashinish reaksiyaları, ularning mexanizmlari va ularga ta'sir etuvchi faktorlar bat afsil yoritib berilgan.

Uslubiy qo'llanmaning uchinchi mavzusi to'yinmagan birikmalarga birikish reaksiyalariga bag'ishlangan bo'lib, unda galogenlarning, galogenvodordlarning elektrofil birikish mexanizmi, Markovnikov qoidasi va elektrofil birikish reaksiyasingin kinetikasi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Organik kimyoda muhim ahamiyat kasb etgan Dils-Alderning siklobirikish reaksiyaları va ularning mexanizmları to'g'risida bat afsil ma'lumotlar uslubiy qo'llanmaning to'rtinchi mavzusidan o'rın olgan.

Beshinchi mavzu o'zida aromatik qatordagi o'rın olish reaksiyalarini mujassamlantirgan bo'lib, unda Xyukkelning aromatiklik qoidasi, "nobenzoid" aromatik sistemalar, benzol halqasida boradigan elektrofil, nukleofil va radikal o'rın olish reaksiyaları va ularning mexanizmları to'g'risidagi ma'lumotlar bilan boyitilgan.

Uslubiy qo'llanmaning oltinchi mavzusi molekulyar qayta guruhlanishga bag'ishlangan bo'lib, biz bu mavzuni ham to'laqonli ochib berishga harakat qildik. Ushbu uslubiy qo'llanma talabalarining organik kimyo fanidan olayotgan bilim va ko'nikmalarining bir sistemaga solishga xizmat qiladi deb umid qilamiz hamda qo'llanmani o'qib, unga o'z tanqid, taklif va mulohazalarini bildirgan ustozlarimizga va talabalarimizga o'z minnatdorchiligidimizni izhor etamiz.

Nº1 MAVZU: KIMYOVIY TUZILISH NAZARIYASI

1. Mavzu rejası: Tuzilish nazarıysining asosiy holatlari;

- kimyoviy tuzilish nazarıysining hozirgi zamona holati;
- uglerod atomining elektron qobig'ning tuzilishi haqida kvant-mexanik tushunchalar;
- reaksion qobilyatining kimyoviy tuzilishiga bog'liqligi to'g'risidagi elektron tushunchalar.

2. Tayanch iboralar: Tuzilish, nazarıya, Butlerov, izomeriya, elektron qobig', zarracha, kvant-mexanik, reaksiyon qobilyat, elektron tushunchalar.

3. Maqsadi: kimyoviy tuzilish nazarıysining hozirgi zamona holati to'g'risida uglerod atomi elektron qobig'ning tuzilishi haqida va reaksiyon qobilyatining kimyoviy tuzilishga bog'liqligi to'g'risida elektron tushunchalar berish;

4. Dars o'tish vositalari: O'UM, ma'ruza matni, kompyuter, slaytlar;

5. Dars o'tish usuli: ma'ruza, Pinbord, aqliy hujum.

6. Mavzuning mazmuni:

Qadim zamona larda odamlar organik moddalarini olish va ishlatalish sohasida amaliy tajribalarga ega bo'lganlar. Uzum sharbatini bijg'itib sırka olishni, o'simliklardan shakar, moy olishni, yog'urni ishqorkar bilan qaynatib sovun hosil qilishni yaxshi bilishgan. Lekin insonlar tomonidan tabiat mahsulotlariidan ajratib olib ishlatalgan mahsulotlarning ko'pchiligi aralashmalardan iborat bo'lган. Sof holdagi moddalarini dastlab 900 yillarda arab alkemyogarlari hosil qildilar. Ular uzum sirkasidan sırka kislotasini, musallas ichimligidan etil spirtni sof holda ajratib olishdi. XVIII asrga kelib qator organik moddalar: mochevina hamda vino, olma, limon va gall kislotalari sof holda ajratib olindi.

Kimyoning dastlabki rivojlanish davrida organik va anorganik moddalar bir-birdan farq qilinmagan Fransuz olimi Lemeri 1675 yilda kimyo bo'yicha birinchini kitobini yozdi va u tabiatda uchraydigan moddalarini ma'lum bir sinflarga to'plab ularni uch turga bo'ldi:

- 1.O'simliklardan olinadigan moddalar
- 2.Hayvonlardan olinadigan moddalar
- 3.Mineral moddalar


Shved olimi Berselius 1806 yil o'simlik va hayvonlardan olinadigan moddalarini organik moddalar deb atashni taklif qildi. Kimyoning organik moddalarini o'rjanadigan bo'limi organik kimyo deb ataldi.

O'sha davrda kimyoda Berseliusning vitalistik (lotincha *vita*- bu hayot, *lis*-kuch demakdir) nazarıysi mavjud bo'lib, bu nazarıyaaga binoan organik birikmalar o'simlik va hayvon organizmida qandaydir "hayotiy kuch" ta'sirida vujudga keladi. Shu sababli ularni sun'iy usullar bilan olish mumkin emas degan noto'g'ri tushuncha hukmronlik qilar edi. Bu idealistik ta'limot organik kimyo fanining rivojlanishiga to'sqinlik qilib keldi. 1824 yilda Berseliusning shogirdi, nemis olimi Vyoler tomonidan disiandan oksalat kislotani, 1828 yilda anorganik tuz-ammoniy izosianatdan mochevinani sintez qilinishi bu nazarıyaaga berilgan kuchli zarba bo'ldi.


1845 yilda nemis kimyogari Kolbe tomonidan sırka kislotaning, 1854 yilda fransuz kimyogari Bertho yog'ni, 1861 yilda rus olimi A.M. Butlerov chumoli

aldegididan shakarsimon moddani sintez qilishi vitalistik nazariyani chippakka chiqardi va organik kimyo fanining rivojlanishiga keng yo'l ochdi.

Shundan so'ng Berselius, Libix va Vyoler kabi kimyogar olimlar (1830 yillarda) organik moddalar tuzilishining radikallar nazariyasini taklif etishdi. Bu nazariya mualliflarining fikricha organik birikmalarda sodir bo'ladigan o'zgarishlarda, molekulasingin bir qismi (ular uni "radikal" deb atashgan) o'zgarishga uchramasdan dastlabki moddadan reaksiya mahsulotiga o'tadi. Ular organik birikmalarning molekulalari elektrostatik tortishish kuchlari hisobga birikkan qarama-qarshi zaryadlangan radikallardan iborat degan fikrni olg'a surishgan. Ammo keyinchalik yig'ilgan tajriba natijalarini tushintirib berishga bu nazariya ojizlik qildi. Bu nazariyaning o'mniga XIX asr ning 40 yillarida Jerar va Loran tomonidan yaratilgan "tiplar nazariyasi" kirib keldi. Bu nazariya tarafdarları "radikallar nazariyasiga" qarama-qarshi o'laroq asosiy e'tiborni organik birikma molekulasingin reaksiya jarayonida o'zgaradigan qismiga qaratishdi. Tiplar nazariyasi mualliflari anorganik va organik moddalar orasida chuqur yaqinlik bor deb hisoblashdi. Ularning fikricha organik moddalarni anorganik moddalar molekulalarida atomlarning radikallarga o'ren almashgan hosilalari deb qarash mumkin. Bunda hosil bo'ladigan organik moddalar anorganik moddalarga xos bo'lgan barcha reaksiyalarga kirishadi. Ular moddalarni to'rtta asosiy tipga: vodorod, vodorod xlorid, suv va ammiak tipiga bo'lib chiqishdi.



Masalan suv tipiga quyidagi moddalarni kirkizishdi:



Tiplar nazariyasining mualliflari ancha yutuqlarga erishishgan bo'lishsada organik birikmalarning tuzilishini kimyoviy tajribalar orqali aniqlab bo'lmaydi degan noto'g'ri aqidaga suyanib qolishgan edi.

XIX asrning 60-yillarida organik kimyoda juda katta katta eksperimental material yig'ilgan bo'lib, u tipler nazariyasining bir qancha bandlarini shubha ostida qoldirdi. Bu vaqtga kelib uglerod atomining to'rt valentligi (Kolbe, Kekule) va uning boshqa uglerod atomlari birikib bog' hosil qilish qobiliyati (Kekule, Kuper) aniqlandi.

Biroq erishilgan bu yutuqlarini, dalillarni umumlashtirib tushintirib beradigan va keyingi tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladigan nazariya hali yo'q edi. Organik birikmalarning tuzilish nazariyasi deb ataluvchi bunday nazariya Qozon universitetining professori A.M. Butlerov tomonidan yaratilib, 1861 yilda tabiatshunoslarning Germaniyada bo'lib o'tgan s'yezdida e'lon qilindi.

Organik birikmalarning tuzilish nazariyasi atom va molekulalardan moddalarning haqiqiy mavjud bo'lgan qismidir, atomlar molekulada o'zaro ma'lum tartibda birikkan va ularning birikish tartibini kimyoviy usullar yordamida isbotlash mumkin degan xulosaga asoslanadi. A.M. Butlerovning organik birikmalarning tuzilish nazariyasi

quyidagicha tariflanadi: "Murakkab zarrachaning tabiatini uning tarkibiga kiruvchi zarrachalarning tabiatiga, ularning miqdori va kimyoviy tuzilishiga bog'liq". Ushbu nazariyadan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. Organik moddalar molekulasi dagi hamma atomlar bir-biri bilan ma'lum izchillikda bog'langan, bunda ularning bir-biri bilan birkishi valentlik asosida bo'ladi.

Molekulasida atomlarning birkishi tartibini va ular bog'larining tabiatini A.M. Butlerov kimyoviy tuzilish deb atadi.

Uglerod atomlarning zanjirli ochiq yoki halqali holda bo'lishi, bir-biri bilan bir bog', qo'shbog' yoki uchbog' orqali birkishi mumkin.

2. Moddalarning kimyoviy xossalari molekulaning tarkibiga va kimyoviy tuzilishiga bog'liq. Kimyoviy tuzilishning bu qoldasi izomeriya hodisasini tushuntrib beradi.

3. Reaksiyalarda molekulaning hamma qismi emas, balki ma'lum qismi o'zgarganligi tufayli moddaning kimyoviy o'zgarishini organish orqali uning kimyoviy tuzilishini aniqlash mumkin.

4. Moddaning xossasini organib uning tuzilishini aniqlash va ushbu modda tuzilishini hamda ma'lum darajada uning xossasini ham aks ettiradigan formula bilan ifodalash mumkin.

5. Molekula tarkibiga kirgan funksional guruhning xossasi o'zarmas bo'lmasdan, balki shu guruh birikkan atom yoki atomlar guruhining tasrida o'zgaradi.


A.M. Butlerovning bu nazariyasi organik kimyoning rivojlanishiida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu nazariyaning rivojlanishi va boyishida olimning shogirdlari va izdoshlari V.V. Markovnikov, A.M. Zaysev, Ye. Ye. Wagner, A.Ye. Arbuzov va boshqalar katta hissa qoshdilar.

Organik birkalmalarning xossasi ularning elektron va fazoviy tuzilishiga ham bog'liq ekanligi hozirgi kunda hamnaga ma'lum. Shunga ko'ra A.M. Butlerovning kimyoviy tuzilish nazariyasining hozirgi zamон тарисини quyidagiha ifodalash mumkin: "Murakkab zarrachaning tabiatini uning tarkibiga hamda kimyoviy, elektron va fazoviy tuzilishiga bog'liq".

Uglerod atomining elektron qobilg'ining tuzilishi huqqa kvanto-mekanik tushunchalar

Molekulyar orbitalida sharsimon simmetriiga ega bo'lgan suqat bitta 1s-elektron orbitali aylanadigan vodorod atomidan farqli o'laroq, uglerod atomida bog' hosil qiluvchi elektronlar aksial simmetriyaga ega bo'lib, 2p-holida joylashgan bo'ladi. Bu holda ikkala uglerod atomlari xususiy funksiyalarning bir-birini qoplashi nafaqat yadrolar o'rtaсидаги masofaga, balki 2p-orbitallarning o'zaro orientasiyasiga ham bog'liq bo'ladi.

Ia rasmda keltirilgan holatga ko'ra qoplanish yadroli bir-biridan ancha uzoq masofada bo'lganda yuzaga keladi. p-orbitallarning o'zaro bir-birini qoplashuviga uchun esa yadrolarning bir-biriga yaqinlashuviga talab qilinadi. Muoif qisqara borgach kulon itarish kuchlari organligi sababli a holatga nisbatan b holida qoplanish kam bo'ladi, ya'nib holatda bog'ning oriyentasiyasiga a holatga nisbaton kuchsiz bo'ladi.



p- σ -bog'


p- π -bog'


Agar p-orbitallar uchun ikkala qoplanish ham mumkin bo'lsa, ulardan p-orbitalning uzun o'qi bo'yicha qoplashuv ehtimoli katta bo'ladi va bu maksimal qoplashuv prinsipi deb ataladi. p- orbitallar ishtirok etadigan valentlikning bunday yo'naliishi o'z ifodasini shunday topadi.

Agar elektron bulutlar molekula hosil qilayotgan atomlar markaz (yadro)larini birlashtiruvchi to'g'ri chiziq bo'yicha qoplansa, σ - (sigma) bog'lar hosil bo'ladi. Qoplanish yadrolarni birlashtiruvchi to'g'ri chiziqqa perpendikulyar yo'naliishda sodir bo'lsa, π (pi) bog' yuzaga keladi. d-AO larning to'rtala pallasi ham bir-biri bilan qoplanishidan hosil bo'ladigan bog' δ (delta) bog' deyiladi.

Uglerod atomining to'rt valentligiga e'tibor beradigan bo'lsak, 2s orbitaldagi bitta elektroni qo'zg'algan holatda 2 pz -bo'sh orbitalga ko'chib o'tadi. Lekin bunda hosil bo'ladigan bog'lar bir-biriga teng bo'lmaydi va to'g'ri tetraedrik shaklga ega bo'lgan metan molekulasining tuzilishini tushuntirib berolmaydi. Bu kamchilikni gibrildanish nazariyasi bartaraf etadi.

L. Poling turli atom orbitallari bir -biri bilan qo'shilib ulardan "o'rtacha" yoki "oraliq" orbitallar vujudga keladi degan fikri aytdi Masalan, uglerod atomining bitta s- va uchta p-orbitali qo'shilib, to'rtta bir xil "oraliq" orbital hosil bo'ladi. Oraliq orbital gibrildi orbital deb ataladi. (Gibrildi so'zi qo'shilish, chatishish degan ma'noni anglatadi). Uglerod atomidagi bitta s- va uchta p-orbitalning qo'shilishidan hosil bo'lgan to'rtta gibrildi orbital bir xil shakl va energiyaga ega. Gibrildi orbitalda uni hosil qilgan dastlabki orbitallarning shakli ma'lum darajada saqlanib qoladi. (2-rasm, a). Chizmadan ko'rindiki, gibrildi orbitallarning bir tomonida elektron buluti ko'p,






C

2-rasm. A-gibrid orbital; B-s- va p-orbitallardan uglerod gibrid orbitallarining hosil bo'lishi; c-metan molekulasining hosil bo'lishi.


ikkinchini tomonida esa kam. Gibrid orbital boshqa orbitalni ana shu elektron ko'p tomoni bilan qoplaydi. Natijada qoplanish maksimal, yadrolar o'rtaida elektron bulutining zichligi ortadi, yuzaga keladigan bog' ham barqaror bo'ladi. 2b-rasmda uglerodning bitta 2s va uchta 2p-orbitallardan to'rtta gibrid orbitalning hosil bo'lishi ko'rsatilgan bo'lib, to'rtta gibrid orbillar tetrader markazidan uning uchlari tomon yo'nalib joy lashadi, ikkinchidan, gibrid orbitallar va 1s orbitaldan metan hosil bo'lganda gibrid orbitallarining tetraedrik joy lashishi metan molekulasiagi vodorod atomlarning (aniqrog'i elektron juftlarining) bir -biridan maksimal uzoqlikda turishi ni ta'min laydi.(2b-rasm). Bu esa ularning o'zaro itarilish energiyasi juda kam bo'lishiiga sababchi bo'ladi. Gibrid orbitallarning yo'nalishlari orasidagi burchaklar metanda $109^{\circ}28'$ ga teng sp^3 -gibridlanish uglerod atomining birlamchi valentlik holati deyiladi.

Orbitallarning gibridlanishiga sabab sistema energiyasining kamayishi idir. Uglerod atomida gibrid orbitallarning hosil bo'lishiida, eng avvalo s- orbitallardagi juftlashgan elektronlarning bittasi p-orbitalga o'tadi. Buning uchun ma'lum darajada Q_1 miqdor energiya sarflanadi. 2b-rasminning keyingi bosqichi s va p orbitallardan gibrid orbitallar hosil bo'lishiidan iborat. Bunda ham energiya yutiladi (Q_2). Uchinchi bosqichda gibrid va s-orbitallardan metan molekulasi hosil bo'ladi: gibrid va s- orbitallar qoplanib kimyoviy bog'ni vujudga keltiradi. Bog' hosil bo'lganda energiya (Q_3) ajralib chiqadi. Gibrid orbitallar maksimal qoplana olganidan bog' hosil bo'lganda ajraladigan energiya $Q_3, Q_1, + Q_2$ yig'indidan katta. Bog' hosil bo'lishi gacha sistemaning yutgan energiyasi, keyinchalik sistema chiqargan energiya (Q_3) dan kichik, gibridlanish sodir bo'lishi hisobiga sistema o'z energiyasini $Q_3 - (Q_1 + Q_2) = Q_4$ miqdorga kamaytiradi. Sistema energiyasining kamayishi bilan boradigan har qanday jarayon uning barqarorligini oshrigani uchun gibridlanish sodir bo'ladi. sp^3 -gibridlanishda 3 ta p-orbital ishtirok etsa, gibridlanishda 2 ta p -va 1 ta s- orbital ishtirok etishi ham mumkin. Bitta p-orbital o'zgarishsiz qoladi. Natijada uchta bir xil gibrid orbital hosil bo'ladi. Gibrid orbitallar o'zaro 120° burchak ostida joy lashadi, bunda ularning bir-biridan itarilish minimal bo'ladi. Bu orbitallar fazoviy bo'lmasdan yassidir. (3-rasm) Bunday gibridlanishga sp^2 -gibridlanish, shu holatida uglerod atomi esa "ikkilamchi valentlik holatida" deyiladi. sp^2 -gibridlangan ikkita uglerod atomi bir -bir bilan bog'langanda bir-biri ni qoplaydi.



3-rasm. sp^2 -gibridlaniš


Bunda σ -bog' hosil bo'ladi. Har qaysi uglerod atomida qolgan bittadan p -orbital ham bir-birini qoplaydi. Qoplanish etilen molekulasi joylashgan tekislikka perpendikulyar yo'nalishda sodir bo'ladi. (4b-rasm) (π -bog'). Etilen molekulasiida C=C bog'ning bittasi σ , ikkinchisi π -bog' bo'ladi. Etilendagi orbitallarning bunday qoplanishiga σ - π - qoplanish deyiladi va u Xyukkel va Penni tomonidan tavsiya etilgan.



4-rasm. Etilen molekulasingin σ -bog'ning tuzilishi (a), π -bog'ning tuzilishi (b).

Agar gibridlaniš bitta s va bitta p -orbital hisobiga sodir bo'lsa, bunday gibridlaniš diagonal yoki sp -gibridlaniš deyiladi. Hosil bo'ladigan ikkita bir xil gribid orbital bir-biri bilan 180° burchak ostida joylashsagina ular o'rtaSIDAGI masofa maksimal bo'ladi. (5a-rasm).

sp - gibridlaniš holatidagi uglerod atomi "uchlamchi valentlik holata" deyiladi.



5-Rasm

Diagonal gibridlanišda uglerod atomida ikkita "foydalanimagan" sof p -orbital ortib qoladi. Ikkiti sp - uglerod atomlaridan asetilen molekulasi hosil bo'lishida gribid orbitallar σ -bog' hosil qilib bog'lanadi (5b-rasm). Har qaysi uglerod atomida ortib qolgan ikkitadan p -orbital esa bir-birini o'zaro perpendikulyar tekislikda qoplaydi

(5c, d-rasmlar.). Asetilen molekulasidagi uglerod atomlari ikkita π -va bitta σ -bog' orqali bog'langan.

Jadval 1

Bog'lar uzunligi va energiyasining gibrildanish turi bilan bog'liqligi

Birikma	Bog' uzunligi \AA	Gibrildanish turi	Bog' energiyasi kkal/mol	Birikma	Bog' uzunligi \AA	Gibrildanish turi	Bog' energiyasi kkal/mol
$\text{CH}_3\text{-CH}_3$	1,102	$\text{sp}^3\text{-s (C-H)}$	102	$\text{CH}_3\text{-CH}_3$	1,54	$\text{sp}^3\text{-sp}^3$	83
$\text{CH}_2=\text{CH}_2$	1,086	$\text{sp}^2\text{-s (C-H)}$	106	$\text{CH}_2=\text{CH}_2$	1,34	$\text{sp}^2\text{-sp}^2$	146
$\text{CH}=\text{CH}$	1,057	sp-s (C-H)	121	$\text{CH}=\text{CH}$	1,20	sp-sp	199

Birinchi jadvalda etan-etenlen – asetilendagi C-C va C-H bog'lar uzunligi va energiyasini taqqoslash shuni ko'rsatadi ki, bu qatorda C-C bog'ning uzunligi kamayib, energiyasi ortib boradi. Bu uglerodning gibrildanish holati bilan tushuntiriladi. s-orbital sharsimon bo'lganligi uchun u yadrodan p-orbitalga nisbatan kamroq masofaga cho'ziladi. Boshqacha aytganda, yadro atrosida s-orbitali bo'lgan atom p-orbitali bo'lgan atomga nisbatan kamroq hajmni egallaydi. Gibrild orbitali atom esa oraliq hajmni egallaydi. Gibrild orbitalda s-orbitalning hissasi qancha ko'p bo'lsa gibrildanishga uchragan atom o'lchami shunchakichik bo'ladi.

sp^3 - gibrildanishda gibrild orbitalda s-orbitalning hissasi 25% ga teng. Bu hissa sp^2 -da 33,3%, sp da 50% ni tashkil etadi. $\text{sp}^3 \rightarrow \text{sp}^2 \rightarrow \text{sp}$ gibrildanishlarda C-C bog'ning uzunligi kamayib boradi va shu sababli uning mustahkamligi va bog' energiyasi shur'cha ortadi. Gibrildanish xarakterining o'zgarishi bilar. C-C bog'lar uzunligi va energiyasining o'zgarishidagi qonuniyatlari C-H bog' uchun ham xos bo'lib, faqat bunda bog'lar uzunligining kamayishi va uning energiyasining ortishi asta-sekin sodir bo'ladi (jadval 1).


Gibrild orbitalda s-orbitalning hossasi ortib borishi bilan uglerod atomining elektromanfily ligi ham ortib boradi. Bunga sabab shuki, gibrild orbitalning cho'zilganligi qancha kam bo'lsa, uning yana bir gibrild orbital yoki biror atom orbitali bilan qoplanish joyi yadroga shuncha yaqin bo'ladi. Qoplanish joyida elektron jufti joylashgani uchun bu juft yadroga kuchli tortiladi, ya'ni yadro uni kuchliroq ushlab turadi. sp^3 , sp^2 , sp qatorda gibrild orbitalning cho'zilganligi kamayib borganidan uglerod atomi yadrolarining juftlarni tortib turishi kuchayadi. Bu esa uglerod atomining elektromanfily ligi irtishini bildiradi. Haqiqatan ham sp^3 -gibrildanish holatida uglerod atomining elektromanfily ligi 2,5 bo'lsa, sp^2 -da 2,8 ga, sp holatda 3,1 ga teng.

Elektromanfilylik $\text{sp}^3, \text{sp}^2, \text{sp}$ qatorda oshib borishi bilan shu gibrild orbitaliar hosil qiladigan kimyoviy bog'larning qublanuvchanligi ortib boradi. $\text{sp}^3\text{-sp}^2\text{-sp}$ qatorda C-H bog'larining qublanganligi ortadi, uglerod atomining kovalent radiiusi kamayadi.

**Reaksiyon qobilyatning kimyoviy tuzilishiga bog'liqligi
to'g'risida elektron tushunchalar**

A.M. Butlerov tomonidan organik moddalar tuzilish nazarining yaratilganligi organik kimyo fanining rivojlanishiga keng yo'l ochib berdi. Ayniqsa, 1874 yili Vant-Goff va Le-Bel tomonidan stereoximiyaga asos solingandan so'ng, tuzilish prinsipi moddaning xossalari nafaqat uning kimyoviy, balki fazoviy tuzilishi bilan bog'liqligi haqidagi tushunchalar bilan to'ldirildi. Boshqacha aytganda tuzilish prinsipi endi

tekislikdan fazoga ko'chirildi. Atomlarning murakkabligi aniqlangan keyin esa tuzilish prinsipi moddaning xossalari uning elektron tuzilishi bilan bog'liqligi haqidagi tasavvular bilan yana ham boyidi. Molekulalar va boshqa kichik zarrachalarning bir – biridan farqi, ularning elektron tuzilishi bilan bog'liqligi aniqlandi. Agar XIX asrda asosiy e'tibor moddaning ichki tuzilishini o'rganishga qaratilgan bo'lsa, XX asrning boshlaridan moddaning xossalarni uning tuzilishi bilan bog'lab o'rganish diqqat markazida bo'lib qoldi. Tabiatshunos filosoflar G.V. Bikov va B.M. Kedrov bu bog'lanishlarni matematik uchburchak ko'rinishda ifodaladilar.




Dalton atomistikasiga qadar kimyogarlarni asosan tarkib –xossa bog'lanish qiziqtirgan va modda tuzilishi haqida ham hech qanday tushuncha bo'lмаган. Kimyoviy tuzilish nazariyasi yaratilgandan so'ng esa asosiy etibor tarkib- tuzilish bog'lanishga qaratildi. Hozirgi vaqtida esa "kimyoning asosiy vazifasi" bo'lgan, moddaning reaksiyaga kirishishi qobilyatining uning tarkibi va xossasi bilan bog'liqligi masalasi (ya'ni tarkib-xossa va tuzilish-xossa bog'lanishlar) ni o'rganish kuchaydi.

Shu tariqa kimyoda "molekulaning reaksiyaga kirishish qobilyati" tushunchasi paydo bo'ldi. Avval boshda faqat molekulalarning reaksiyaga kirishish qobilyatigina nazarda tutilgan bo'lsa, keyin uni kimyoviy reaksiyalarning oraliq mahsulotlariga ham tatabiq etish masalasi ko'tariladi.


Reaksiyon qobilyatning modda tuzilishiga bog'liqligini geteroatom tutmaydigan alternant uglevodorodlar butadiyen va benzol misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, ularda π - elektronlar molekulasidegi barcha atomlarda baravar taqsimlanganligidan, uning zichligi asosida molekuladagi elektrofil yoki nukleofil hujumiga qulay atomlar (markazlar) ni ko'rsatib bo'lmaydi. Lekin bu molekulalardagi barcha uglerod atomlari elektrofil ta'sirga moyillik ko'rsatadi. Elektrofil zarracha butadiyenda C_1 va C_4 , benzolda esa halqadagi uglerod atomlarining biriga hujum qilishi tajribada tasdiqlangan. Statik metodga kiruvchi chetki elektronlar metodi va o'z-o'zida qutblanuvchanlik buning sababini tushintirib beradi. Elektrofil zarracha molekulasidegi elektron zichlikning ko'p, nukleofil reagent esa kam joyiga hujum qiladi.

Geterosiklik birikmalar misolida π -elektron zichlikdan foydalananib, elektrofil va nukleofil reaksiyalar ketishi ehtimolligi ko'p bo'lgan markazlarni aniqlash uchun misol tariqasida xinolinga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning molekulyar diagrammasidan ko'rindiki, elektronlar eng zich holat C_8 (1.003), zichlikning eng kam joyi esa 4-holatdagi uglerod atomi hisoblanadi (0.772):




U holda, elektrofil o'rın olish C_6 , nukleofil o'rın olish reaksiyasi C_4 atomda borish kerak. Radikal o'rın olish reaksiyasining C_2 holunda borish ehtimoli ko'p. Bu xulosa tajriba natijalariga muofiq keladi.

Nitrobenzolda aksincha, π -elektronlar zinchligi -meta holatlarda katta. Haqiqatan ham, nitrobenzoga elektrofil hujum qilganda -meta izomer hosil bo'ladi. Shundey qilib π -elektron zinchlik taqsimlanishidan foydalanib, elektrofil va nukleofil reaksiyalar boradigan markazlar to'g'risida xulosa chiqarish muhim.



Shuningdek organik birikmalarning turli sinflariga mansub molekulalardagi reaksiyaga kirishish qobiliyatini yuqori bo'lgan holatlarni aniqlashda induktiv va mezomer effektlar muhim rolo'yndaydi.


Masalan:



1) Ma'lumki karbonil guruhi manfiy induktiv effekt namoyon qiladi. Shu effekt tufayli, karbonil guruh tutuvchi aldegidlar, ketonlar, murakkab efirlar, karbon kislotalarda karbonilga nisbatan α -holatda joy lashgan vodorod atomlarining kislotaligi ortadi, chunki shu vodorod bog'langan uglerod atomida elektron zinchlik kamayadi. Natijada bu birikmalar galogenlar bilan ta'sirlashganda α -vodorod atomlari galengaga almashadi.




2. Karbonil gruppadagi elektron siljish tufayli aldegid va ketonlarda nukleofil birikish karbonil uglerodida boradi.




3. Induktiv effekt birikmaning kislotalilik kuchiga katta ta'sir ko'rsatadi.
 4. Mezomer effekt tufayli vinil galogenidlaridagi galogen alkil galogenidlardagiga nisbatan kam harakatchan.

5. Induktiv va mezomer effektlar aromatik halqaga ikkinchi o'rinosor kiritilganda uning boradigan holati, ya'ni halqadagi oriyentasiyani belgilaydi.


Organik moddalarning reaksiyon qobilyatiga kiimyoiy tuzilishining bog'liqligini 2-okso-, tiokso-, selenokso-, -aminopirimidonlarning alkillash reaksiyalari misolida ko'rshimiz mumkin. 6-metil-2-okso-pirimidon-4ni turli xil absolyut erituvchilarda (etanol, asetonitril, dioksan, DMFA, DMSO) va har xil metillash agentlari (metil yodid, metil tozilat) bilan turli xil haroratlarda metillanganda har xil metil hosilalari hosil bo'lishi aniqlangan.




2-Holatda tiokso gruppasi bo'lganda N^1,N^3 alkil mahsulotlarga nisbatan S-alkil mahsulotning unumi ancha yuqori bo'lishligi aniqlangan.



2-holatda selenokso guruh bo'lganda metillash reaksiyasi natijasida asosan 2-metilseleno mahsulot hosil bo'lishi qayd etilgan.



Ikkinci holatda amino- yoki –asetilamino guruflar bo'lganda reaksiya o'ziga xos yo'nalishda ketishligi aniqlangan.



Yuqorida keltirilgan misollardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, organik moddalarining reaksiyon qobiliyatini ularning kimyoviy tuzilishiga chambarchas bog'liq bo'lar ekan. Shu narsalardan kelib chiqib moddalarining kimyoviy tuzilishini bilgan hokda ularning reaksiyon qibiliyatlarini, reaksiyalarning u yoki bu yo'nalishda sodir bo'lishini oldindan aytilib berish mumkin bo'lar ekan.

Nazorat savollari

- Organik kimyo fanining rivojlanish tarixini so'zlab bering.
- A.M. Butlerovning "Organik moddalar tuzilish nazariya'sini mohiyatini qoidalari bilan tushintirib bering.
- Uglerod atomining sp^3 , sp^2 va sp gibrildanish holatlari to'g'risida tushinchabering.
- Reaksiyon qibiliyatning organik birikmalar kimyoviy tuzilishiga bog'liqligi to'g'risida so'zlab bering.
- 2-Okso-, -tiokso-, -selenokso-, -aminopirimidon-4 larning alkillash reaksiyalarini yozib bering.

MAVZU №2 TO'YINGAN UGLEROD ATOMIDAGI O'RIN OLISH REAKSIYALAR

1. Mavzu rejasi: O'rin olish reaksiyalarining sinflanishi. Nukleofil o'rin olish. Uning ikki mexanizmi. S_N1 va S_N2 . Alkilgalogenidlarning solvolizi va ularning S_N1 va S_N2 mexanizmlari bilan tanishtirish;

-Benzil va alkilgalogenidlarning S_N- reaksiyon qobiliyat. Nukleofil o'rin olish mexanizmlari va stereokimyosi bilan tanishtirish;

-Bimolekulyar mexanizm.

-Monomolekulyar mexanizm. O'rin olish va ajralish reaksiyalarining nisbatiga ta'sir etuvchi faktorlar. Bu reaksiyalarning yo'nalishi. Zaysev va Gofman qoidalari. Ajralish reaksiyalarining stereokimyosi bilan tanishtirish;

2. Tavanch iboralar: O'rin olish, solvoliz, nukleofil, mexanizm, S_N1 va S_N2 , alkilgalogenid, reaksiyon qobiliyat, stereokimyo, bimolekulyar, monomolekulyar, Zaysev, Gofman, yo'nalish.


3. Maqsadi: O'rin olish reaksiyalarining sinflanishi to'g'risida; Nukleofil o'rin olishning S_N1 va S_N2 mexanizmlari to'g'risida; benzil va alkilgalogenidlarning S_N- reaksiyon qobiliyat, nukleofil o'rin olish mexanizmlari va stereokimyosi to'g'risida; bimolekulyar va monomolekulyar mexanizm to'g'risida; o'rin olish va ajralish reaksiyalarining nisbatiga ta'sir etuvchi faktorlar, reaksiyalarning yo'nalishi, Zaysev va Gofman qoidalari hamda ajralish reaksiyalarining stereokimyosi to'g'risida tushunchalar berish.

4. Dars o'tish vositalari: O'UM, ma'ruza matni, kompyuter slaydlar.


5. Dars o'tish usuli: ma'ruza, Pinbord, aqliy hujum

6. Mavzuning mazmuni:


Organik kimyoda o'rin olish reaksiyalarini ikki-uch guruhga: radikal, elektrofil va nukleofil o'rin olish reaksiyalariga bo'lindi. O'rin olish reaksiyalarida uglerod atomidagi vodorod atomining yoki boshqa atom va atomlar guruhining almashinishi sodir bo'ladi. Radikal va elektrofil o'rin olish reaksiyalarida ko'pchilik hollarda vodorod atomining almashinishi ro'y beradi. Aromatik halqada vodorodning almashinishi elektrofil o'rin almashinishiga tipik misol bo'la oladi.



Nukleofil o'rin olish reaksiyalarida esa vodorodning emas, balki boshqa element atomlarining o'rin almanishi yuz beradi.



Shuning bilan birgalikda vodorod atomining nukleofil o'rin olish reaksiyalarini ham ma'lum:




Bundan tashqari nukleofil o'r'in olish reaksiyaları radikallar ishtirokida ham sodir bo'lishi mumkin.


Hozirgi davrga kelib nukleofil o'r'in olish reaksiyaları yetarliča o'rganilgan bo'lib, bunda Ingold va uning shogirdlarining xizmatlari beqiyosdir. Nukleofil o'r'in olishning klassik misoli sifatida galoid alkilning ishqor ta'sirida spiritga aylanish reaksiyasini keltirish mumkin:



Bu tipdag'i reaksiyalar kinetikasini o'rganish shuni ko'rsatadi ki, ular bir-biridan farq qiluvchi ikki xil mexanizmda kechar ekan:




yoki



Ko'pchilik hollarda reaksiyalar ikkala mexanizm aralashgan holda sodir bo'ladi. Shuning bilan birligida ba'zib reaksiyalar u yoki bu mexanizmnning o'zi bo'yicha ham yuz beradi. Masalan metil bromid ishqorning suvli eritmasida gidrolizga uchraganda, reaksiya (1) tenglama bo'yicha kechadi. Bu shundan dalolat beradiki, reaksiyaning sekin kechuvchi birinchisi bosqichida galoid alkil va gidroksil ioni baravar ishtirok etishadi.


Ingedking taklifiga ko'ra reaksiyaning o'tish bosqichida hujum qilayotgan gidroksil ioni bilan ta'sirlashayotgan uglerod atomi orasida vujudga keladigan bog' brom atomi to'lasincha uzilib ketishidan oldin yuzaga keladi. Bunda C-Br bog'ning o'zilishi uchun kerak bo'ladigan energiyaning ma'lum qismi C-OH bog'ning hosil bo'lishi natijasida ajralib chiqadigan energiya hisobiga to'ldiriladi. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadi ki, gidroksil ionning alkil galogenidga yaqinlashuviga uglerod va brom atomlari markazlarini birlashtiruvchi chiziq (liniya) yo'nalişida o'tganda eng kam energiya safl bo'ladi. Uni quyidagi sxema bo'yicha tasvirlash mumkin.



O'tish holatida gidroksil guruhining manfiy zaryadi brom atomi tomon yo'nalişida taqsimlanadi, hujum qilinayotgan uglerod atomining vodorodlari o'tish holatida esa rasmdagi tekislikka perpendikulyar bo'lgan bir tekislikda joy lashishadi (planarli joy lashuv). Bu tipdag'i o'r'in olishni Ingold bimolekulular o'r'in almashish deb atadi va S_N2 belgi bilan belgilashni taklif qildi.

Uchlamchi butil xloridning ishqoriy muhitida gi'drolizi olib qaraladigan bo'lsa, bunda reaksiya tezligi gidroksil ionlarining konsentrasiyasiga bog'liq bo'lmaydi va shu sababli bu ionlar reaksiyaning birinchisi bosqichida ishtirok etmaydi. Reaksiyaning birinchisi bosqichida alkilgalogenid kuchsiz ionlanishga uchiraydi. Ionlanishdan so'ng

reaksiyaning ikkinchi tez bosqichi, ya'ni OH^- ion tomonidan yoki erituvchi molekulasi tomonidan hujum sodir bo'ladi.



Bu tipdag'i mexanizm monomolekulyar nukleofil o'r'in almashinish deb ataladi va S_N1 belgisi bilan belgilanadi.

Alkil galogenidning boshlang'ich ionlanishuvi hosil bo'layotgan ionlarning solvatlanish energiyasi hisobiga ro'y beradi.

O'zida musbat zaryad saqlagan uglerod atomi tutgan uchlamchi butil kationi karboniy ioni bo'lib, uning hosil bo'lishida uglerod atomi boshlang'ich tetraedrik holatdan, metil guruhlari bir-biridan maksimal uzoqlashgan, birmuncha barqaror bo'lган planlar holatni egallaydi. OH^- ioni yoki erituvchi molekulasi xoxlagan tarafdan hujum qilishi mumkin bo'ladi. Agar planar holatning yuzaga kelishi fazoviy yoki boshqa faktorlarning ta'sirida qiyinlashadigan bo'lsa, karboniy ionning hosil bo'lishi mumkin bo'lmaydi yoki qiyinchilik bilan kechadi. Shu sababli ionlanish va reaksiyaning S_N1 mexanizmda kechishi sodir bo'lmaydi.

Agar S_N1 mexanizm bo'yicha kechadigan reaksiyada erituvchi (masalan, suv) reaksiyada nukleofil reagent sifatida ishtirok etsa, bunday reaksiyaning tezligi quyidagicha ifodalanadi:

$$\text{Tezlik} = [\text{RHal}] [\text{H}_2\text{O}]$$


Biroq suvning konsentrasiyasini bu yerda doimiy bo'lganligi bois reaksiya tezligi $[\text{RHal}]$ konsentrasiyasiga proporsional bo'ladi. Shuning uchun ayni reaksiyaning kinetikasini faqat suvli eritmalarida o'rganish reaksiya S_N1 mexanizm bo'yicha kechadi degan noto'g'ri xulosaga olib kelishi mumkin.

Ta'sirlashayotgan moddaning erituvchi molekulalari tomonidan hujumga uchrashi solvoliz deb ataladi.

Erituvchingin ta'siri: U yoki bu reaksiyaning mexanizmga erituvchingin tabiatini kuchli ta'sir ko'rsatadi. Foydalilanayotgan erituvchingin qutbliligi qancha katta bo'lsa reaksiyaning S_N1 mexanizm bo'yicha kechish ehtimoli shuncha ko'p bo'ladi. Shuning uchun bitta erituvchini boshqasiga almashtirish ko'pincha reaksiya mexanizmining o'zgarishiga olib keladi. Bunga sabab shuki, qutbli erituvchilarda boshqa erituvchilarga nisbatan ionlanish osonlikcha ro'y beradi. Solvatlanish jarayonida ajralib chiqayotgan kuchli miqdordagi energiya yangidan yangi dastlabki moddalarning ionlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa reaksiya tezligining oshishiga olib keladi. Bunday effektlarning kuchli ta'siri reaksiyani ionlarning solvatlanishi mumkin bo'lмаган gaz fazasida o'tkazilganida yaqqol namoyon bo'ladi. Gaz fazasida reaksiyaning S_N1 mexanizm bo'yicha kechishi erituvchilarda o'tkazilganida qaranganda kam bo'ladi.

Toza etanolga nisbatan etanolning 50% li eritmasida uchlamchi butil xloridning hidrolizi 30000 marta ortadi.

Alkilgalogenid tuzilishining ta'siri: Agar quyidagi alkilgalogenidlarning gidroliz reaksiyalari tezligiga etibor qaratiladigan bo'lsa, qatorning birinchi va oxirgi a'zolari oson gidrolizlanadi, o'rtaqidagi ikkitasi esa barqaror hisoblanadi.





Yuqorida keltirilgan alkil galoidlarini ishqorning suvli-, spirtli eritmasida gidrolizlanish reaksiyalari kinetikasini o'rganish shuni ko'rsatadi, metil va etil bromidlar bimolekulyar mexanizm bo'yicha, izopropil bromid mono va bimolekulyar mexanizmlar bo'yicha (bunda bimolekulyar mexanizm ustunlik qiladi), uchlamchi butil bromid esa to'lasincha S_N1 mexanizm bo'yicha gidrolizga uchraydi.

Bunga sabab shuki metil guruqlarining induktiv effekti tufayli brom bilan bog'langan uglerod atomining elektromanfiyligi ortib boradi va OH gruppasi tomonidan bo'ladijan hujumga befarq bo'lib qoladi. Natijada reaksiyaning S_N2 mexanizm bo'yicha kechish ehtimoli kamayadi.

Izopropil bromidda $(\text{CH}_3)_2\text{CH}-\text{Br}$ bu effekt yanada kuchli namoyon bo'ladi va natijada S_N2 bo'yicha gidrolizlanish ehtimoli yanada kamayadi. Boshqa tarafdan manfiy zaryadning uglerod atomidan qisman brom tomoniga siljishi izopropil bromidning qutblanishiga sabab bo'ladi. Bu esa reaksiyaning S_N1 mexanizm bo'yicha kechishiga zamin yaratadi.


Uchlamchi butil bromidda esa $(\text{CH}_3)_3\text{C}-\text{Br}$ S_N2 amalda mumkin bo'lmay qoladi va gidroliz faqat S_N1 mexanizm bo'yicha sodir bo'ladi.

Hosil bo'ladijan karboniy ionlarining barqarorligi musbat zaryadlangan uglerod atomi bilan bog'langan α -uglerod atomlaridan vodorod atomlarining giperkonyugasiyasi hisobiga oshadi.



Agar quyidagi qatorga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, unda reaksiyaning S_N1 mexanizm bo'yicha kechishi qatorning ikkinchi vakilidan CH_3-Cl $\text{C}_6\text{H}_5\text{CH}_2\text{Cl}$


$(\text{C}_6\text{H}_5)_2\text{Cl}$ $(\text{C}_6\text{H}_5)_3\text{CCl}$ boshlanadi. $(\text{C}_6\text{H}_5)_3\text{CCl}$ birikmaning ionlanish darajasi shunchalik kuchlik, uning suyuq SO_2 dagi eritmasi elektr o'tkazuvchanlik qobiliyatiga ega. Ionlarga dissosialanishing bunchalik osonlashuviga va reaksiyaning S_N1 bo'yicha kechishiga sabab shuki, hosil bo'ladijan musbat zaryadning delokallashuvi tufayli karboniy ionning barqarorlashuvi yuz beradi.



Benzil xloridning reaksiyon qobiliyati uchlamchi butil xloridnikiga o'xshaydi. $\text{C}_6\text{H}_5\text{CH}_2\text{Cl}$ dan $(\text{C}_6\text{H}_5)_3\text{CCl}$ o'tgan sari hosil bo'ladijan karboniy ionning barqarorlashuvi yanada kuchayadi, bu esa o'z navbatida reaksiyaning S_N1 mexanizm bo'yicha kechishiga zamin yaratadi.

E2 mehanizm bo'yicha ajralish oriventasivasi. Zaysev va Goffman qoidalari.

Alkilgalogendlar R-Hal va $RN^+R'_3$ hamda $RS^+R'_2$ tipidagi oniy tuzlarining asoslar katalizatorligida sodir bo'ladigan ko'pchilik ajralish reaksiyalari bittadan ortiq olefinning hosil bo'lishiga olib kelishi kerak edi.



Hosil bo'ladigan olefinlarning nisbiy miqdorlari uchta faktorga bog'liq bo'ladi:


- 1) protonning alternativ β -holatdan uzilishning osonligiga;
- 2) hosil bo'ladigan olefinlarning nisbiy barqarorligiga;
- 3) fazoviy effektlarga;

Eksperimental ma'lumotlarni tadqiq qilish natijasida bir-biriga zid bo'lgan ikkita qoida vujudga keldi. Ulardan birinchisi Zaysev qoidasi bo'lib, unga ko'ra ajralish reaksiysi natijasida o'zida ko'p alkil guruhlari tutgan olefin (II) hosil bo'ladi. Goffman qoidasi bo'yicha esa o'zida kamroq alkil guruhlari tutgan olefin (I) hosil bo'ladi.

Zaysevning qoidasi alkilgalogenidlarning ajralish reaksiyalari uchun xos bo'lib, uni ikkinchi faktordan kelib chiqqan holda tushuntirish mumkin. Ko'p alkil guruhlari tutgan olefin kam alkil guruhlari tutgan izomeriga nisbatan alkil guruhlar vodorod atomlarining giperkonyugasiyasi tufayli barqaror bo'ladi. Jumladan II birikma qo'sh bog' bilan bog'langan beshta C-H bog'ga ega, I birikma esa faqat ikkita C-H bog'ga ega xolos.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, E₂ mehanizm bo'yicha kechadigan reaksiyaning o'tish holatida alkil guruhlarning giperkonyugasiya effekti oxirgi mahsulotnikiga nisbatan kuchli bo'ladi, bu esa yetakchi rol o'ynaydi. Hosil bo'ladigan qo'shbog'dagi alkil guruhlarining giperkonyugasiyasi o'tish holatining energiyasini pasayitiradi, bu esa uning hosil bo'lish ehtimolini kuchaytiradi. Oniyli tuzlarning ajralish reaksiyalari Gofman qoidasiga bo'y sunadi.

Masalan III birikma qizdirilganda giperkonyugasiya natijasida barqaror bo'ladigan propilen o'rniiga asosan etilen hosil bo'ladi:




Bu holda I faktor asosiy rol o'ynaydi deb aytish mumkin. n-propil o'rinosardagi metil guruhining induktiv effekti undagi β -uglerod atomi vodorodining ajralish qobiliyatini susaytiradi. Etil o'rinosarda esa bu effekt bo'lmaganligi sababli etil guruhidagi β -uglerod atomidan vodorodning uzilishi osonlashadi.

Shunday qilib Zaysev qoidasiga binoan ajralish alkil guruhlarining giperkonyugasiyasiga muofiq sodir bo'lsa, Gofman qoidasi esa induktiv effektlarni hisobga olmaydi.

Ajralish reaksiyalarining stereokimyozi

Shu narsa aniqlangangi agar chiqib ketayotgan guruhlar bir-biriga nisbatan trans holatda joylashgan bo'lsa ajralish reaksiyalarining E2 mekanizm bo'yicha kechishi juda tez sodir bo'ladi. Masalan geksaxlorsiklogeksan $C_6H_6Cl_6$ ning qo'yidagi stereoisomerlaridan HCl ni ajralishi boshqalariga nisbatan 10000 marta sekin ro'y beradi. Unda bir-biriga nisbatan trans holatda joylashgan ikkita vodorod va xlor atomlarining yo'qligi bunga sabab bo'ladi.




Balkim β -uglerod atomidan protonning uzilishi natijasida vujudga keladigan elektron just α -uglerod atomiga "orqa" tarafdan hujum qiladi, bu esa chiqib ketayotgan guruhga imkoniyat yaratib beradi:




Taxminlarga ko'ra o'tish holatida hujum qilayotgan asos atomi, ajralayotgan vodorod atomi, $C\beta$ va $C\alpha$ atomlari hamda ajralayotgan guruh bir tekislikda yotishi kerak. Lekin stereoxususiy trans-ajralishda boshqa faktorlar ham rol o'yndaydi.

Ko'rib chiqilgan geksaxlorsiklogeksan misolida oddiy bog' atrofida aylanish, chiqib ketayotgan guruhlarning qulay holatni egallashiga to'sqinlik qiladi. Bu esa o'z navbatida ajralishni qiyinlashtiradi. Xuddi shunga o'xshash holat aralashgan olefinlarning asetilen hosilalariga aylanishida kuzatiladi. Masalan xlorfumar kislotaning (IV) asoslar ta'sirida HCl ni ajratib asetilen dikarbon kislotaga (VI) aylanishi xlormallein kislotaga (V) nisbatan oson kechadi.




Benzaldoksimasetatdan sirka kislotaning ajralib benzonitrilning (IX) hosil bo'lishi ham anti-izomerdan (VII) sin-izomerga (VIII) nisbatan oson kechadi.




Geksaxlorsiklogeksanga (I) o'xshagan trans-ajralish mumkin bo'lмаган hollarda ba'zida sharoitni tanlab sis-ajralish o'tkazish mumkin. Ehtimol sis-ajralish juda yuqori aktivlanish energiyasini talab qiluvchi karbanion hosil bo'lish jarayonini o'z ichiga

oladi. Masalan trikloretilenden HCl ning ajralishi karbanion hosil bo'lish bosqichi orqali o'tadi.



Bog' atrofida aylanish qiyin bo'limgan birikmalarda ajralib chiqadigan guruhlar ajralish vaqtida bir-biridan ancha uzoqroq joylashadi. Masalan mezo-dibromstilbendan (X) to'yinmagan - sis birikma (XI), D L- izomeridan (XII) esa trans- izomerii (XIII) hosil bo'ladi:



Nazorat savollari

1. O'r'in olish reaksiyalarining turlari to'g'risida tushinchha bering.
2. Nukleofil o'r'in olish reaksiyalarini va uning S_N1 hamda S_N2 mehanizmlarini konkret misollar bilan tushintiring.
3. E2 mehanizm bo'yicha boradigan ajralish reaksiyalariga misollar keltiring.
4. Zaysev va Goffman qoidalari o'rtasidagi farq nimadan iborat?
5. Ajralish reaksiyalarida steriokimyoning ro'li to'g'risida gapirib bering.

MAVZU №3 TO'YINMAGAN BIRIKMALARGA BIRIKISH REAKSIYALARI

1. Mavzu rejasি: To'yinmagan C-C bog'lariga birikish reaksiyalari. Galogenlarning elektrofil birikishi. Elektrofil birikishning bosqichli mexanizmi. Galovnivodorodlarning elektrofil birikishi. Markovnikov qoidasi bilan tanishtirish;

-Oralama qo'shbog'li birikmalarga birikish reaksiyalari. Elektrofil birikish reaksiyasining kinetikasi. To'yinmagan uglerod atomi bilan bog'langan radikallarning elektrofil birikish reaksiysi tezligiga ta'siri bilan tanishtirish;

-C=O bog'iga birikish reaksiyalari. Nukleofil reagentlarning birikish mexanizmi. Karbonil guruhi bilan bog'liq radikallarning, uning reaksiyon qobiliyatiga ta'siri. Katalizatorlar ishtirotkida nukleofil birikish. Karbonil guruhiha radikal birikish bilan tanishtirish;

2. Tayanch iboralar: To'yinmagan, elektrofil birikish, reaksiyalar mexanizmi, bosqichli, oralama, qo'shbog', reaksiyalar kinetikasi, radikal, tezlik, C=O bog', nukleofil reagent, reaksiyon qobiliyat, katalizator.


3. Maqsadi. To'yinmagan C-C bog'lariga birikish reaksiyalari to'g'risida; Galogenlarning elektrofil birikishi to'g'risida; Elektrofil birikishning bosqichli mexanizmi to'g'risida; Galovnivodorodlarning elektrofil birikishi va Markovnikov qoidasi to'g'risida tushunchalar berish; Oralama qo'shbog'li birikmalarga birikish reaksiyalari to'g'risida; Elektrofil birikish reaksiyasining kinetikasi to'g'risida; To'yinmagan uglerod atomi bilan bog'langan radikallarning elektrofil birikish reaksiysi tezligiga ta'siri to'g'risida tushunchalar berish.

C=O bog'iga birikish reaksiyalari to'g'risida; Nukleofil reagentlarning birikish mexanizmlari to'g'risida; Karbonil guruhi bilan bog'liq radikallarning, uning reaksiyon qibiliyatiga ta'siri to'g'risida; Katalizatorlar ishtirotkida nukleofil birikish va karbonil guruhiha radikal birikish haqida tushunchalar berish.


4. Dars o'tish vositalari: O'UM, ma'ruza matni, kompyuter slaydlar.

5. Dars o'tish usuli: ma'ruza, Pinbord, aqliy hujum.

6. Mavzuning mazmuni: Uglerod-uglerod qo'shbog'i mustahkam σ -bog'dan va unga nisbatan boshqa tekislikda joylashgan kuchsiz π -bog'dan tashkil topgan.



π -orbitalning juft elektronlari uglerod atomi yadrolari tomonidan kuchsiz tutib turiladi va shu sababli σ -bog' elektronlariga qaraganda oson qutblanadi, bu esa to'yinmagan birikmalarning o'ziga xos reaksiyon qibiliyatni namoyon qilishiga olib keladi. Bu tipdagi birikmalarga birikish reaksiyalari π -elektronlarning nima ta'sirida qutblanishiga qarab: agar tegishli reagentlar ta'sirida bo'lsa ionli (II), agar boshqa faktorlar ta'sirida bo'lsa radikal mexanizmda (III) sodir bo'lishi mumkin.




Ionli mexanizmda asosan qutbli erituvchilarda, radikal mexanizmda esa reaksiya qutbsiz erituvchilarda boshqa radikallar ta'sirida yoki yorug'lilik nuri ta'sirida ro'y beradi.

π -elektronlar C=C qo'shbog'li nukleofil himoya qilish vazifasini bajaradi va shu sababli bunaqa sistemalar uchun X⁺ tipidagi kationlar va elektronodefisit zarrachalar bilan reaksiyaga kirishish xos bo'ladi.


Galogenlarning elektrofil birikishi

Olefirlarga galogenlarning masalan bromning birikishi bir bosqichdan iborat bo'lmasdan balki ikki bosqichni o'z ichiga olib, musbat qutblangan brom atomi inisiatorligida amalga oshadi. Brom molekulasi olefinning π -elektron bulutiga yaqinlashganda qutblanishga uchraydi. Avval brom π -elektronlar bilan ta'sirlashib π -kompleksni hosil qiladi. So'ngra hosil bo'lgan kompleks uzilib, brom atomi uglerod atomi bilan σ -bog' orqali bog'langan karboniy ion (π -kompleks)ga (v) aylanadi, u esa bromoni kationiga (VI) aylanishi mumkin.



Elektrofil hujum

Karbaktion yoki bromoni kationi brom anioni tomonidan hujumga uchrab 1,2-dibrometanga aylanadi.




Birinchi bosqich-etilenga bromning elektrofil hujumi natijasida karbkationning hosil bo'lishi sekin, ikkinchi bosqich, ya'ni karbkationga bromning nukleofil birikishi tez sodir bo'ladi. Shuning uchun butun reaksiyaning tezligi birinchi reaksiyaning tezligiga bog'liq bo'ladi.


Galogenlardan fitor olefinlar bilan portlash ogali reaksiyaga kirishadi, yod esa qiyinchilik bilan ta'sirlashadi (amalda reaksiya sodir bo'lmaydi). Alken molekulasiغا elektron donor o'rinnbosarlarini kiritilishi birikish reaksiyasini tezlashtiradi, elektron akseptor o'rinnbosarlarning kiritilishi esa reaksiyani sekinlashtiradi. Masalan etilen va uning hosilalariga bromning birikishi nisbiy tezligi quydagicha o'zgaradi (metanol, 25 °C da).

	CH ₂ =CH ₂	C ₂ H ₅ -C=CH ₂ H	CH ₃ -C ₂ H ₅ C=C H H	CH ₃ -CH ₃ C=C CH ₃ CH ₃	CH ₂ =CHBr
Alken					
Nisbiy tezligi	1	97	$4,2 \cdot 10^3$	$93 \cdot 10^4$	0,04

Elektronoakseptor guruhlari ta'sirida aktivligi susaygan olefinlarga bromning birikishi ham huddi shunday kechadi.



Aralashgan galogenidlarning (ClJ , ClBr) qo'llanilishiga esa ham birikishni tezlashtiradi.



Br^+ kationining manbai bo'lmish N-bromasetamid CH_3CONHBr , F^- anionining manbai HF ishtirogida qo'yidagi reaksiyani sodir etadi.




Galogenvodorodlarning bosqichli birikishi Markovnikov qoidasi


Olefinlarning galogenvodorodlar bilan reaksiyasida protonning birikishi hal qiluvchi bosqich bo'lib hisoblanadi. (π -kompleksning hosil bo'lishi). Reaksiya Hal^- anionining hujumi bilan tugaydi. Bu xulosa qo'yidagi qatorda galogenvodorodlarning birikishga moyilligining oshishi bilan, ya'ni kislota kuchining oshishi bilan tasdiqlanadi. $\text{HF} < \text{HCl} < \text{HBr} < \text{HJ}$

Keltirilgan qator nafaqat galogenvodorodning o'z vodorodini berishi osonlashuvi bilan, balkim Hal^- anioni nukleofiligining oshishi bilan ham tushintirilishi mumkin, lekin Hal^- ishtirokida boradigan bosqich jarayonni to'liq hal qilmaydi.

Nosimmetrik tuzilishli olefinlarga, masalan propilenga vodorod bromidning birikishi ikki xil mahsulotning hosil bo'lishi bilan borishi kerak edi.




Aslida esa faqat ikkilamchi karboniy ionining hosil bo'lishi natijasida birinchi mahsulotning hosil bo'lishi kuzatiladi va bu narsa Markovnikov qoidasini nazariy jihatdan asoslab beradi.



Markovnikov qoidasiga ko'ra nosimmetrik olefinlarga birikish reaksiyalarida galogen yoki boshqa nukleofil guruh to'yinmagan uglerod atomining eng ko'p tarmoqlanganiga birikadi.


Olefirlarga galogenvodorodlarni birikish reaksiyalarini o'rganishning bir qancha eksperimental qiyinchiliklari mavjud. Suvli eritmalarda birikish reaksiyalarini bilan birga kislotali-katalitik gidratlanish ham yuz berishi mumkin. Qutbliliqi pastroq erituvchilarda esa reaksiya mexanizmi o'zgarib (Markovnikov qoidasiga teskari) HBr ning birikish reaksiyasida asosan $\text{CH}_3\overset{+}{\text{C}}\text{H}-\text{CH}_2\text{Br}$ radikal hosil bo'lganligi bois $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{Br}$ mahsulot hosil bo'ladi.

Vinilgalogenidlarga galogenvodorodlarning birikishi 1,1-digalogen hosilalarining hosil bo'lishi bilan kechadi. Bunga sabab shuki hosil bo'ladigan kation galogenning $+J$ effekti tufayli barqarorlashadi.




Oralama qo'shbog'li birikmalarga birikish reaksiyaları

Kuchlangan diyenlarga delokallashgan π -orbitallarning mavjudligi reaksiyon qobiliyatning butun sistema bo'yicha tarqalishiga sabab bo'ladi. Qo'shbog'lari kuchlanmagan diyenlarga nisbatan kuchlangan diyenlar ancha barqaror bo'lib jumladan bu ularning gidrogenlanish issiqqliklari natijalarini taqqoslaganda yaqqol namoyon bo'ladi. O'zaro ta'sirlashuvchi π -orbitallar sistemasining ko'payishi hisobiga vujudga keladigan delokallanish energiyasi 6 kkal/molni tashkil etadi. Lekin shunga qaramasdan kuchlangan diyenlar kuchlanmaganlariga nisbatan birikish reaksiyalariga oson kirishadi. Bunga sabab shuki birikish reaksiyalarida vujudga keladigan oraliq holat allil tuzilishiga ega bo'lib, u izomerlangan diyenlarga nisbatan kuchlangan diyenlardan osonlikcha hosil bo'ladi.



Masalan kuchlangan diyenlar natriy bilan spirtda qaytarilganda digidrohosilalar hosil bo'ladi, lekin kuchlanmagan diyenlar va oddiy olefinlar bu sharoitlarda qaytarilmaydi.


Butadiyenga xloring birikish jarayonida reaksiyaning oraliq siklik xloroniy ioni hosil bo'lishi bilan borishini kutish mumkin bo'lardi.



Ammo haqiqatda esa bunday ion hosil bo'lmaydi, chunki xloring butadiyenga birikishi natijasida trans-dixlor buten hosil bo'ladi. Agar xloroniy ioni hosil bo'lganda edi Cl^- anioni unga hujum qilishi natijasida sis-birikma vujudga kelardi.


Butadiyenga galogenvodorodlar birikish reaksiyasida avval π -kompleks, keyin esa σ -kompleks hosil bo'ladi. C-1 atomining protonlanishi C-2ga nisbatan oson kechadi, chunki birinchi holatda delokalizasiya tufayli barqarorlashgan ikkilamchi

karboniy kationi hosil bo'ladi. Ikkilamchi holatda esa birlamchi karboniy kationi hosil bo'lishi mumkin edi, bu esa haqiqatda ro'y bermaydi. Hosil bo'ladigan allil kationi Br anioni C-2 ga (1,2-birikish) yoki C-4ga (1,4-birikish) birikishi mumkin.



1,2-birikish faqat past temperaturada va qutbsiz erituvchilarda, 1,4- birikish esa yuqori temperaturada va qutbli erituvchilarda sodir bo'ladi. Temperaturaning ta'siri 1,2-birikishga qaraganda 1,4- birikishning aktivlanish energiyasining yuqoriligi bilan tushintiriladi.

Nossimmetrik diyenlarga birikish esa xuddi alkenlar singari yuz beradi, masalan:



Elektrofil birikish reaksiyasining kinetikasi

Shu narsani esdan chiqarmaslik kerakki, hozirgacha π -komplekslarning elektrofil birikish yoki almashinish reaksiyalaridagi roli to'lasincha yechilmagan. Olefinlarga bromning birikish reaksiyasini spektroskopik o'rGANISH natijasida π - komplekslarning juda qisqa muddat mavjud bo'la oladigan zarrachalar ekanligi qayd qilingan . Hozirgi tasavvurlarga ko'ra π - komplekslarning hosil bo'lishi karbkation hosil bo'lishiga zamin yaratadigan shiddatli jarayon hisoblanadi. Reaksiyaning tezligi karbkation hosil bo'lishiga bog'liq bo'lib, π - komplekslarning roli reagentlarni reaksiyaning sodir bo'lish yo'naliishiga to'g'ri yo'naltirishdan iborat bo'ladi.

Elektrofil reagentlarning qo'shbog'lari bilan ta'sirlashish tezligi kislota-asos ta'sirlashuv kuchiga bog'liq bo'lib, bunda reagent ham yetarlicha ta'sir ko'rsatadi. Reagentning kislotaligi qancha yuqori bo'lsa, qo'shbog'dan π -kompleks va karbkation shuncha osonlik bilan vujudga keladi. Buni galogenlarning qo'shbog'ga birikishi misoldida ko'rib chiqadigan bo'lsak, Lyus kislotalari sifatida ularning kuchi elektromanfiyligi oshgan sari ortib boradi va eng reaksiyon qobiliyati kuchli galogen fтор hisoblanadi. Galogenlar va intergalogen birikmalarning reaksiyon qobiliyati kutilgan natijani beradi va bu narsa ularning nisbiy tezliklarida yaqqol namoyon bo'ladi.


I-I 1, I-Br 3000, I-Cl 100000, Br-Br 10000, Br-Cl 4000000

Yuqorida keltirilgandan ko'rinish turibdiki I ning kuchi intergalogen birikmalarda boshqa galogenlar (Br va Cl) elektromanfiyliliklari hisobiga kuchayar ekan.

I-Br va I-Cl ishlatalig - ikkala holatda ham π -kompleks va karbkation faqat iod atomi ishtirokida hosil bo'ladi. Brom iodga nisbatan kuchli Lyus kislotasi hisoblanadi. Xlor esa ikkala holatda ham bir xil ta'sir ko'rsatadi.

Elektrofilning reaksiyon qobiliyati musbat zaryadning qisman yoki to'lasincha delokallanishi natijasida ortadi, masalan $\text{NO-Br} < \text{Br}_3^-$ (tribomid ion) $< \text{Br-Br} << \text{Br-Cl} << \text{Br}^+$ (suvda). Iod kuchsiz Lyus kislotasi hisoblanadi, shuning uchun uni olefinga birikishi katalizator vositasida amalga oshadi. Qutbsiz erituvchilarda yodning o'zi katalizatorlik vazifasini bajaradi, chunki uning tashqi elektron qobig'i to'lmagan bo'lib, osonlikcha kompleks hosil qiladi. ($\text{I}_2 * \text{I} = \text{I}_3^-$)

Shunga muofiq reaksiya bu holda uchinchi (ba'zida to'rtinch) tartibga ega bo'ladi. $d\chi/dt = k[\text{olefin}] [\text{I}_2]^2$. Agar qutbli erituvchi ishlataltsa (masalan suv), birikish reaksiyasi ikkinchi tartibda ega bo'ladi, chunki yod molekulasidan elektrofil tortilish vodorod bog'i hisobiga amalda oshadi. Kuchsiz nukleofillarning reaksiyasida erituvchi katta rol o'ynadi. Masalan: penten-1 brom bilan reaksiyasi turli xil erituvchilarda quyidagicha tezlikda ta'sirlashadi.



Karbon kislotalarning katalitik ta'siri ularning kislotaligi oshishi bilan ortadi.

Qutbsiz erituvchilarda mo'l miqdor brom ishlatalganda reaksiya uchinchi tartibga ega bo'ladi.

Xuddi galogenlarga o'xshab protonli kislotalarning reaksiyon qobiliyatining ortishi ularning kislotalik kuchining oshishi bilan ortadi: $\text{HCl} < \text{H-Br} < \text{H-I}$ yoki $\text{CH}_3\text{COOH} < \text{HCOOH} < \text{CF}_3\text{COOH}$. Lyus kislotalari ham galogenvodorodlarning qo'shbog'ga nisbatan reaksiyon qobiliyatini kuchaytiradi.

To'yinmagan uglerod atomi bilan bog'langan radikallarning elektrofil birikish reaksiyasining tezligiga ta'siri. Karbonil guruhi ta'siri

To'yinmagan uglerod atemi bilan bog'langan elektrodonor radikallar elektrofil birikish reaksiyasining tezligini oshiradi, elektronakseptor radikallar esa susaytiradi.

Vinil bromidga vodorod bromidning birikish reaksiyasi tezligi etilenning o'ziga vodorod bromid birikishidan 34 marta past bo'ladi.

Agar o'rinnbosar kuchli elektronakseptor ta'siriga ega bo'lsa birikish reaksiyasining yo'naliishi o'zgaradi.


Ma'lumki $\text{CH}_2=\text{CHX}$ ($\text{X}=\text{CN}, \text{COOH}, \text{CF}_3$) tipidagi birikmalarda galogenvodorodlarning birikishi Markovnikov qoidasiga teskari boradi va qo'shbog' elektron zichligining kamayishi natijasida reaksiya tezligi susayadi.




C=O bog'iga birikish reaksiyalari.
Nukleofil reagentlarning birikish mexanizmi

C=O bog'i aldegidlar, ketonlar, kislotalar va ularning hosilalarida uchraydi va ular uchun nukleofil reagentlarning C=O bog'ning π - bog'iga birikish reaksiyalari xarakterlidir.


Birikish reaksiyasining birinchi bosqichi tetraedrik uglerod atomi tutgan oraliq intermediatning hosil bo'lishi bilan boradi:




Hosil bo'ladigan oraliq intermediat anion protonni biriktirib reaksiya mahsulotiga aylanadi.




Reaksiyaning keyingi yo'nalishi X ning tabiatiga bog'liq bo'ladi. Agar X-H yoki alkil radikal bo'lsa reaksiya haqiqiy mahsulot hosil bo'lish bosqichida to'xtaydi. HCN, NaHSO₃, RMeX kabi birikmalarning birikishi shu tartibda boradi.




Shunga o'xshash karbonil birikmalarning kondensasiya reaksiyalari, xususan ishqoriy muhitda aldol kondensasiyasi ham shunday kechadi.



Azot tutuvchi nukleofillar NH₂OH, NH₂NHR, NH₂NHCONH₂, RNH₂ va boshqalar birikkanda esa reaksiya oxirgi mahsulot hosil bo'lish bosqichida to'xtamaydi. Hosil bo'lgan hidroksil guruhgaga nisbatan α -holatda yetarlicha protonlashgan vodorod atomi bo'lganligi bois reaksiya natijasida suv ajralib qo'shbog' hosil bo'lishi mumkin.



Karbonil guruhgaga suv va spirlarning birikish reaksiyalari ham shu asnoda kechadi.




Agar RCOX dagi X-guruhi anion sifatida yaxshi ajraladigan guruh bo'lsa nukleofil almashinish reaksiyasi sodir bo'ladi:




X=OH, OR, Hal, OCOR va boshqalar.

X ning ajralib chiqishi C-C bog'larining uzilib chiqishi bilan ro'y bermaydi, chunki karbanionlar uzilib chiqishi qiyin bo'lgan guruhlar hisoblanadi. Faqatgina ular juda kuchli elektronakseptor o'rinnbosarlar ta'sirida stabillashgandagina shunday reaksiya sodir bo'ladi. Bu turdag'i reaksiyalarga β -dikarbonil birikmalarni ishqoriy muhitda parchalanishi misol bo'la oladi.



Triglogenmetilketonlarning parchalanishi ham shunga o'xshash kechadi.


Birikish reaksiyasi mahsulotining parchalanishidan eng protonlashgan vodorod atomi bilan yaxshi ajraluvchi guruhning qo'shilib uzilishi sodir bo'ladi.



Shu narsani esdan chiqarmaslik kerakki, karbonil guruhiga birikish reaksiyalari odatda qaytar reaksiyalar bo'lib, to'g'ri sharoit tanlanganda ularni kerakli yo'nalishiga yo'naltirish mumkin.

Katalizator ishtirokida nukleofil birikish

Agar C=O bog'ning reaksiyon qobiliyatini yuqori bo'lib, nukleofil reagent ham yuqori aktivlikka ega bo'lsa, reaksiya katalizatorlar ishtirokisiz amalgalashadi. Aksinchada ta'sirlashayotgan reagentlarning aktivligi past bo'lgan hollarda katalizatorlar qo'llaniladi. Karbonil guruhning nukleofilligini oshishi bilan boradigan kislotali kataliz uni protonlash orqali amalgalashiriladi.




Katalizning bu turi masalan, murakkab efirlarning kislotali gidrolizida uchraydi. Bu holda reaksiya tezligi vodorod ionlarining konsentrasiyasiga bog'liq bo'ladi:

$$v = k[\text{C=O}] [\text{Y}^-][\text{H}^+]$$

Karbonil birikmalarning hammasi protonlanganda reaksiya tezligi maksimal qiymatga erishadi. Karbonil guruhining asosligi juda past bo'lganligi bois pH ning eng past qiyamatlarida ham reaksiya tezligi oshib boradi. Masalan nukleofil sifatida suv bo'lganda shunday hodisa kuzatiladi. Lekin azot tutuvchi nukleofillar bilan reaksiyada karbonil guruh bilan birga nukleofil reagent ham protonlanadi. Bu esa uning nukleofil aktivligi yo'qolishiga olib keladi. Shuning uchun har bir reaksiya uchun pH ning

nukleofil reagent va karbonil birikmaning asosligi bog'liq bo'lган qiyamatini topish lozim bo'ladi.

Ko'philik karbonil guruhgа birikish reaksiyalarida protonning karbonil birikmaga to'lasincha o'tishi majburiy bo'lmasdan, balkim C=O bog'ning aktivlanishi umumiyl kislotali katalizi hisobiga yuz beradi. Nukleofil reagent bilan ta'sirlashganda uglerod-nukleofil bog'ining sinxron hosil bo'lishi va dissosiyalanmagan kislota molekulasiidan kislorod atomiga protonning o'tishi sodir bo'ladi:



Bu holda reaksiya tezligi quydagiicha ifodalaniadi:

$$v=k[\text{C}=\text{O}][\text{Y}][\text{HA}]$$


Umumiyl kislotali kataliz nukleofilning aktivligi juda past bo'lган hollarda qo'llaniladi.

Umumiyl asosli katalizda nukleofil birikmaning aktivlanishi quydagi mexanizm bo'yicha kechadi:



Xuddi umumiyl kislotali katalizda bo'lгани каби umumiyl asosli kataliz ham nukleofil reagentning reaksiyon qobiliyati past bo'lган hollarda va undan proton osonlikcha ajraladigan hollarda qo'llaniladi. Masalan suv va spirtlarning birikishi bunga misol bo'ladi.

Ba'zi hollarda birlamchi aminlar oksim va semikarbazonlar hosil bo'lish reaksiyalarida yaxshi katalizatorlik rolini bajaradi:




Reaksiyaning tezligi p-xlorbenziliden anilinning hosil bo'lish tezligiga bog'liq bo'ladi.


Shunday qilib nukleofil birikish reaksiyalarida katalizning turlari xilma-xil bo'lib, u ta'sirlashayotgan moddalar tuzilishiga va reaksiyalarning o'tkazilish sharoitiga bog'liq bo'ladi.

Karbonil guruhgа radikal birikish

Peroksidlar parchalaganda hosil bo'ladian erkin radikal aldegidning vodorodini uzlilishiga sabab bo'lishi mumkin. Hosil bo'lган radikal qo'shbog'ga hujum qiladi. Umumiyl reaksiya quydagi ko'rinishga ega bo'ladi.



Ketonlar radikal inisiatorlar ta'sirida qo'shbog'li birikmalar bilan birikish reaksiyalariga kirishadi.



Nazərat savollari

1. To'yinmagan birikinalarga galogenlarning birikishini mexanizmlari bilan yozib bering.
2. Galogenvadorodlarning alkenlarga Markovnikov qoidasiga binoan birikishining shart-sharoitlari bilan tushintirib bering.
3. Dien uglevodorodlariga birikish reaksiyalarini mexanizmlari bilan ifodalab bering.
4. Elektrofil birikish reaksiyalarining kinetikasi to'g'risida tushinchcha bering.
5. To'yinmagan uglerod atomi bilan bog'langan radikallar elektrofil birikish reaksiyalariga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Mavzu №4. SIKLO BIRIKUSH REAKSIYALARI

1. **Mavzu rejasি:** Polienlarning siklobirikishi, termik reaksiyalari uchun tanlash qoidalari bilan tanishtirish; 6-ta elektron qatnashuvi bilan boradigan siklobirikish va ajralish reaksiyalari bilan tanishtirish;

-Dils-Alder reaksiyasi bilan tanishtirish;

-1,3-dipolar siklobirikish reaksiyasi bilan tanishtirish;

-2+2+2 siklobirikish reaksiyasi va eliminlash bilan tanishtirish;

-siklobirikish reaksiyasida simmetriyaning ro'li bilan tanishtirish;

2. Tayanch iboralar: Polien, termik, siklobirikish reaksiyasi, 6-elektronli, ajralish reaksiyalari, Dils-Alder, dipolar, eliminlash, simmetriya.

3. **Maqsadi:** Polienlarning siklobirikish termik reaksiyalari uchun tanlash qoidalari to'g'risida; 6-ta elektron qatnashishi bilan boradigan siklobirikish va ajralish reaksiyalari to'g'risida; Dils-Alder reaksiyasi to'g'risida; 1,3-dipolar siklobirikish reaksiyasi to'g'risida; 2+2+2 siklobirikish reaksiyasi va elimenlanish to'g'risida hamda siklobirikish reaksiyasida simmetriyaning ro'li haqida tushinchalar berish;


4. **Dars o'tish vositalari:** O'UM, ma'ruza matni, kompyuter slaydlar.

5. **Dars o'tish usuli:** Ma'ruza, pinbord, aqliy hujum.


Polienlarning siklobirikish termik reaksiyalari uchun tanlash qoidalari

Vudverd va Gofman bo'yicha agar suprafasial jarayonda ishtirok etadigan elektronlarning umumiy soni $4q+2$ ga, antrafasial jarayonda esa $4r$ element ishtirok etsa, ularning soni toq bo'lsa, elektrosiklik reaksiyaning termik yo'l bilan sodir bo'lishi mumkin bo'ladi.

π -elektron juftlar molekulaning faqat bir tomonidan ishtirok etsa suprafasial jarayonda ishtirok etadi, agar har ikkala tomonidan ishtirok etsa antrafasial jarayonda ishtirok etadi deb hisoblanadi.




Agar konfigurasiya saqlanib qolsa yoki birdaniga molekulaning ikki chekkasidan inversiyasi kuzatilsa σ bog'lar suprafasial ishtirok etadi, agar konfigurasiyaning bir tomonidan saqlanishi, ikkinchi tomonidan inversiyasi kuzatilsa σ bog'lar antrafasial ishtirok etadi.



Bu qoidani qo'llash uchun reaksiyada ishtirok etadigan σ -yoki π -elektronlarni ixtiyoriy tarzda ($4q+2$) yoki $4 r$ elektron tutgan gruppaga birlashtirish kerak bo'ladikim, bunda q yoki r butun sonlarga yoki nolga teng bo'ladi (bunda qo'shbog'larning qutblanuvchanligi farq qilmaydi). Bu elektronlar yoki elementlarning suprafasial yoki antarafasial jarayonlarda ishtirok etish – etmasliga qarab o'tish holati haqida xulosa chiqarish mumkin va niyoyat muofiq ravishda suprafasial va antarafasial jarayonlarda effektiv ishtirok etadigan ($4q+2$)_s va ($4 r$)_A elementlar to'g'risida xulosa chiqarish mumkin.

Misol tariqasida diyen sintezini ko'rib chiqish mumkin:




butadiyen: 4 ta elektronli [$4r(r=1)$]

etilen: 2 ta elektronli [$4q+2(q=0)$]

Antarafasial jarayonda ishtirok etadigan $4 r$ tipidagi elementlar yo'q. Jarayonda suprafasial ishtirok etadigan $4q+2$ tipidagi element – etilen bor. Shundan kelib chiqqan holda elementlarning umumiy soni $(4q+2)_s + (4r)_A = 1 + 0 = 1$ teng, ya'ni bunda reaksiya termik usulda sodir bo'lishi mumkin.



Xuddi shunday etilenning dimerlanish reaksiyasida ikkita $4q+2$ element bo'lib, ularning ikkalasi ham suprafasial jarayonda ishtirok etishi mumkin emas. Yig'indi toq sonli bo'lishi uchun ulardan biri antarafasial jarayonda ishtirok etishi kerak.




Tanlashning bu usullarini qo'llash har doim ham oson kechmaydi, shu sababli sixron reaksiyalar konsepsiyasini (Matye) qo'llash yaxshiroq natijalar beradi.

Toq elektronlar (1,3,5 va boshqalar) ishtirokida sodir bo'ladijan reaksiyalar agar molekulaning faqat bir tomonidan bog' hosil bo'lishiga (uzilishiga) sabab bo'lsa, suprafasial reaksiyalarga muofiq keladi. Ularning oraliq holati Xyukkel tipidagi aromatik xarakterga ega bo'ladi.


Juft elektronlar (2,4,6 va boshqalar) ishtirokida sodir bo'ladijan reaksiyalar agar molekulaning har ikki tarafidan hosil bo'lishiga (uzilishiga) sabab bo'lsa, antarafasial reaksiyalarga muofiq keladi. Ularning oraliq holati Myobius tipidagi aromatik xarakterga ega bo'ladi.




Kuchlangan sistemalardan halqalarning hosil bo'lishi va ochilishida toq sondagi elektron juftlar qatnashsa, disrotator reaksiyalar, agar juft sondagi elektronlar qatnashsa konrotator reaksiyalar deyiladi.





Vodorodning 1 chi holatdan 3 chi holatga ko'chib o'tishi anti-xarakter, 5 chi holatga ko'chib o'tishi esa sin- xarakter kasb etadi.



E2 tipidagi sixxon eliminlanish trans- stereo kimyoga (2 ta elektron juft), termik eliminlanish esa sis- stereokimyoga (3 elektron juft) misol bo'ladi.





Ba'zibir reaksiyalar ikki xil ehtimolga ega bo'ladi. Masalan 3ta elektron juftlar ishtirok etadigan diyen sintezida ikkala ishtirokchi diyen uchun ham sis, diyeonofil uchun ham sis ham stereokimyo sinfasial xarakterga ega bo'ladi. Olefinlarning faqat ikkita elektron juftlari ishtirokida kechadigan dimerlanish reaksiyasi esa reagentlardan biri uchun sinxron tipidagi apofasial xarakterdagi jarayon kechadi.




6-ta elektron qatnashishi bilan boradigan siklobirikish va ajralish reaksiyaları. Dils-Alder reaksiyasi

Butadiyen va olefin o’rtasida boradigan siklobirikish reaksiyasi butadiyenning simmetriya tekisligiga nisbatan simmetrik bo’lgan quyi valent orbitalining (ψ_2) olefinning xuddi shuningdek simmetriya tekisligiga nisbatan simmetrik bo’lgan yuqori band orbitali (ψ_2) bilan birlashishiga olib keladi. Ikkala reaktivning molekulalari ham suprafasial holatni egallaydi va oraliq mahsulot ham simmetriya tekisligiga nisbatan simmetrik holatda bo’ladi.




Bu reaksiya diyen sintezi yoki Dils-Alder reaksiyaları nomi bilan mashhur. Bu reaksiyalar organik kimyoda mukammal o’rganilgan reaksiyalarlardan hisoblanadi.


Oltita elektron ishtirokida boradigan bunday reaksiyalar olefinda ikkita elektronoakseptor o’rinnbosar bo’lsa oson kechadi (bunday olefinlar diyenofillar deyiladi).




Birikish yo’nalishi elektronlarning elektron donor va elektronakseptor effektlar ta’sirida sixxon ko’chishi sxemasiga muofig keladi.




Bundan tashqari reaksiya yuqori darajada stereoselektiv bo'lib, u qo'shbog'ga nisbatan sis-birikish, diyenga nisbatan endo- birikish holatida kechadi. Siklopeptadiyen va maliyen angidridning birikishida hosil bo'ladijan 4 assimetrik markazning konfigurasiyalari oraliq holatining stereospesifik hosil bo'lishi orqali tutashadi.




Ana shu sababga ko'ra trans- pentadiyen-1,3 ning akril efirlari bilan reaksiyalarini sis-diaralashgan siklogexsen hosilalarining hosil bo'lishiga olib keladi.




Dil-Alder reaksiyalarini turli xil birikmalar o'rtaida kechadi. Asosiy diyenlar quyidagilar hisoblanadi:




Dyen sinteziga shuningdek yeninlar, vinil aromatik hosilalar, aromatik va geterosiklik diyenlar ham kirishadi:




Diyenofillar odatda bir yoki bir necha elektron akseptor o'rribosarlarga ega bo'ladi:




Asetilenning hosilalar ham diyenofil rolini o'ynashi mumkin.




Oddiy olefinlar ham diyenofil vazifasini bajarish mumkin, lekin bunda yuqori temperatura ($200-250^{\circ}\text{C}$) talab qilinadi. $\text{C}=\text{C}-\text{Cl}$ yoki $\text{C}=\text{C}-\text{OR}$ tipidagi vinil hosilalari ham shu tipga kiradi. Arinlar esa a'llo darajagi diyenofil xossasini namoyon qilib, nafaqat diyenlarga, hatto benzolga ham birikishi mumkin.




Antrasen bilan triptisen hosil qiladi.




Bundan tashqari benzol qizdirilganda o'ta aktiv uchbog' tutgan birikmalarga diyen sifatida birikishi mumkin.




Diyenofil ikkita geteroatom tutgan birikmalar ham diyen sinteziga kirishadi.




Kislород yorug'lik nuri ta'sirida siklobirikish reaksiyasiga kirishadi.



Diyenofil tarkibida bitta geteroatom bo'lgan birikmalar ham diyen sinteziga kirishadi.




Geteroatom diyenda ham bo'lishi mumkin.



1,3-dipolyar siklobirikish reaksiyasi

Bu guruh reaksiyalari molekulasining oxirida elektrofil (musbat) va nukleofil (manfiy) markazlar tutgan to'yingan strukturali birikmalarning 1,3-dipolyar birikish reaksiyalari ko'rindi. Bunday sistemalar sixron elektrofil va nukleofil hujum ta'sirida formula qo'shbog'larga birikishi mumkin.




1,3-dipolyar siklobirikish reaksiyalari juda ko'p uchraydi. Asosiy 1,3-dipolyar reagentlarga quyidagilar kiradi.


	1,2-Forma 1,3-Dipol	Hosil bo'ladigan geterosikl	
		$\text{C}=\text{C}$ bilan	$\text{C}=\text{O}$ bilan
«Alkilazid»	$\text{R}-\overset{\ominus}{\text{N}}-\overset{\oplus}{\text{N}}\equiv\text{N}$ \longleftrightarrow $\text{R}-\overset{\ominus}{\text{N}}-$		
«Nitril-imid» (1)	$\text{R}-\overset{\oplus}{\text{C}}\equiv\text{N}-\overset{\ominus}{\text{C}}(\text{R}')\text{R}''$ \longleftrightarrow $\text{R}-\overset{\oplus}{\text{C}}=\text{N}$		
«Nitril-imin» (2)	$\text{R}-\overset{\oplus}{\text{C}}\equiv\text{N}-\overset{\ominus}{\text{N}}-\text{R}'$ \longleftrightarrow $\text{R}-\overset{\oplus}{\text{C}}=\text{N}$		

«Nitril-oksid» (3)	$\text{R}-\text{C}\equiv\text{N}-\overset{\oplus}{\text{O}} \longleftrightarrow \text{R}-\overset{\oplus}{\text{C}}=\text{N}-\overset{\ominus}{\text{O}}$		
«Azometin-imin» (4)	$\text{R}-\overset{\oplus}{\text{C}}=\text{N}-\overset{\ominus}{\text{N}}-\text{R}'' \longleftrightarrow \text{R}-\overset{\oplus}{\text{C}}-\text{N}-\overset{\ominus}{\text{N}}-\text{R}'$		
«Nitron» (5)	$\text{R}-\overset{\oplus}{\text{C}}=\text{N}-\overset{\ominus}{\text{O}} \longleftrightarrow \text{R}-\overset{\oplus}{\text{C}}-\text{N}-\overset{\ominus}{\text{O}}$		
«Ketokarbin» (6)	$\text{R}-\overset{\ominus}{\text{C}}-\text{C}=\text{O} \longleftrightarrow \text{R}-\overset{\oplus}{\text{C}}=\text{C}-\overset{\ominus}{\text{O}}$		


(1) va (3) moddalarning hosilalari tegishli azot tutgan karbon kislotalar hosilalaridan trietilamin ta'sirida galogenvodorodlar ajralishi natijasida hosil bo'ladi:




(4) birikma diazoalkanlarga diazosian ta'sir ettirib olinadi.



(5) birikma karbonil birikmaning hidroksilamin hosilasi bilan (in sity) ta'sirida olinadi.




(6) birikma esa diazoketonlarning fotolizida hosil bo'ladi.




1,3-dipolyar birikishga quyidagi birikmalar moyil bo'ladi.

Olefinlar $\begin{array}{c} \diagdown \\ \text{C}=\text{C} \\ \diagup \end{array}$, asetilenlar $\begin{array}{c} \text{---} \\ \text{C}\equiv\text{C} \\ \text{---} \end{array}$, aldegid va ketonlar $\begin{array}{c} \diagdown \\ \text{C}=\text{O} \\ \diagup \end{array}$, iminlar $\begin{array}{c} \diagdown \\ \text{R}-\text{N}=\text{C} \\ \diagup \end{array}$, izosianli efirlar $\text{R}=\text{N}=\text{C}=\text{O}$, izotiosianli efirlar $\text{R}=\text{N}=\text{C}=\text{S}$ va boshqalar. Bularidan tashqari 1,3-dipolyar birikish reaksiyasiga degidrobenzolning uchbog'i ham osonlikcha kirishadi. 1,3-dipolyar birikishga misollar:


a) Benzonitril oksidning stirol bilan reaksiyasi




b) Diazometanning fenilizotiosianat bilan reaksiyasi



v) Degidrobenzolning benzonitril oksidiga birikish reaksiyasi.




g) Degidrobenzolning butilazidiga birikish reaksiyasi.




2+2+2 siklobirikish reaksiyasi va eliminlanish


3- π sistema ishtirokida boradigan siklobirikish odatda ko'p uchraydi. Asosan ular ikkita qo'shbog'i orbitallari o'rtasida kuchli ta'sirlashuv bo'lgan sistemalarda oson kechadi. Masalan norkaradiyen asetilen dikarbon kislotasining dimetil efiri bilan siklobirikish reaksiyasiga kirishadi.




Siklogeksadiyen -1,3 alkil alkinilketonlar bilan ta'sirlashib siklogeksadiyen hosilalarini hosil qiladi.




Eliminlanish reaksiyalariga keladigan bo'lsak Vudvord va Gofman ularni "xeletron" reaksiyalar deb atashgan. Bu yerda diyen sinteza teskari reaksiya nazarda tutilgan. Masalan, 500°C da siklogeksen diyen va etilenga parchalanadi.





Agar hosil bo'ladigan fragmentlardan biri aromatik modda bo'lsa reaksiya yanada oson kechadi.



Siklogeksadiyenning hosilalari ham parchalanadi, bu reaksiya sikldagi yoki zanjirlarni almashinish reaksiyasini o'tkazishga imkon beradi.



Diazenlar va sulfonlar qizdirilganda butadiyen hosil bo'ladi.



Ikkita geteroatomli qo'shbo'g'i bo'lgan diyenlar qizdirilganda ham diyenlar hosil bo'ladi.




Siklobirikish reaksiyasida simmetriyaning roli

Shu narsa yaxshi aniqlanganki diyenlar diyen sintezi reaksiyasiga faqat sis konfigurasiyaga kirishadi. Agar sis forma hosil bo'lmas ekan diyen siklobirikish reaksiyasiga umuman kirishmaydi. Sis formaga ega bo'lgan siklopentadiyen Dils-Alder reaksiyasiga juda aktiv kirishadi. Trans-piperilendagi metil gruppasi molekulاسining sis-konformasiyasini qabul qilishiga to'sqinlik qilmaganligi bois tetrasian etilen bilan sis piperilenga nisbatan 100000 marta tez kirishadi.

Sis – piperilenning esa sisoid konformasiyani qabul qilishi metil guruhi va vodorod atomining sterik itarishuvi sababli qiyinlashgan.



Reaksiyaning stereokimyoiy xususiyatlari tushintirish mumkin bo'ladi, qachonki reaksiyaning oraliq mahsuloti siklik tuzilishiga ega bo'ladi deb tasavvur qilinsa.



Shunday qilib Dils-Alder reaksiyasi bir bosqichda siklik tuzilishli oraliq mahsulot hosil bo'lishi bilan boradi, chunki bunda yaxshi olti π elektron sistemasи vujudga keladi.

Nazorat savollari

1. Siklobirikish reaksiyalari mexanizmlari to'g'risida tushinchcha bering.
2. Dils-Alderning siklobirikish reaksiyalariga misollar keltiring.
3. Dienlar va diennofil birikmalarga misollar yozing.
4. 1,3-dipolyar siklobirikish reaksiyalarini konkret misollar bilan ifodalang.
5. 2+2+2 siklobirikish reaksiyalari va eliminlash to'g'risida tushinchalar bering.

Mavzu № 5 AROMATIK QATORDAGI O'RIN OLISH REAKSIYALARI

1. Mavzu rejasi: Aromatiklik tushunchasi. Benzol halqasi tutmagan “nobenzoid” elektron konfigurasiyali aromatik birikmalar. Boshqa aromatik birikmalar bilan tanishtirish.

Benzol halqasiga xos o'rin olish nazariyasi. Aromatik halqa uchun o'rin olish mexanizmi. π va σ -komplekslar. Aromatik birikma tabiatи va elektrofil reagent xarakteriga qarab reaksiya mexanizmini o'rganish bilan tanishtirish.

Benzol halqasi uchun π radikal o'rin olish reaksiyalari. Benzol halqasi uchun nukleofil o'rin olish reaksiyalari. S_N1 va S_N2 mexanizmlar. Oraliq bosqichda arin hosil bo'lishi bilan boradigan S_N- reaksiyalar bilan tanishtirish.

2. Tayanch iboralar: Aromatik, benzol halqasi, benzoid, nobenzoid, elektron konfigurasiya, o'rin olish nazariyasi, mexanizm, π va σ -komplekslar, elektrofil, nukleofil, radikal.

3. Maqsadi: Aromatiklik tushunchasi to'g'risida; Benzol halqasi tutmagan “nobenzoid” elektron konfigurasiyali aromatik birikmalar to'g'risida; Boshqa aromatik birikmalar to'g'risida tushunchalar berish.

Benzol halqasiga xos o'rin olish nazariyasi to'g'risida. Uning mexanizmi to'g'risida; π va σ komplekslar to'g'risida; Aromatik birikma tabiatи va elektrofil reagent xarakteriga qarab reaksiya mexanizmini o'rganish to'g'risida tushunchalar berish;

Benzol halqasi uchun o'rin olish reaksiyalari to'g'risida; Benzol halqasi uchun nukleofil o'rin olish reaksiyalari to'g'risida; S_N1 va S_N2 mexanizmlar to'g'risida; Oraliq bosqichda arin hosil bo'lishi bilan boradigan S_N- reaksiyalar to'g'risida tushunchalar berish.

4. Dars o'tish vositalari: O'UM, ma'ruza matni, kompyuter slaydlar.

5. Dars o'tish usuli: ma'ruza, Pinbord, aqliy hujum

6. Mavzuning mazmuni:

Aromatiklik tushunchasi. Benzol halqasi tutmagan “nobenzoid” elektron konfigurasiyali aromatik birikmalar


Aromatiklik tushinchasi

E.Xyukkel (1931 yil) kvant kimyoviy hisoblashlari asosida aromatiklik qoidasini yaratdi. Halqasida ($4n+2$) ta π -elektrondan iborat halqali planar yopiq tutash sistemalar aromatik sistema bo'la oladi. ($n=0,1,2,3\dots$) Xyukkel qoidasi asosan bir halqali monosiklik sistemalarga xos bo'lib polisiklik sistemalarning aromatikligini shu sistemaga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tushintiradi. Aromatik barqarorlik nafaqat olti azoli tutash sistemalarga, balki Xyukkel qoidasiga buysinadigan uch, to'rt, besh, olti va etti azoli tutash sistemalarga ham xosdir. Bunday barqaror sistemalar nobenzoid aromatik sistemalar deyiladi va ularga quyidagilar misol bo'ladi.


Ayrim holda ularni antiaromatik brikimlar deb ham atashadi, quyida π -elektronlar soni har-xil bo'lgan uch – to'rt – besh - olti va etti azoli sistemalar keltirilgan.




To'rt a'zoli tutash siklik sistemada har xil π -elektronlarning taqsimlanishi (delokallanishi) keltirilgan.



Besh a'zoli tutash siklik sistemada har xil π -elektronlarning taqsimlanishi (delokallanishi) keltirilgan.



Olti a'zoli tutash siklik sistemada har xil π -elektronlarning taqsimlanishi (delokallanishi) quyidagicha:



Etti a'zoli tutash siklik sistemada har xil π -elektronlarning taqsimlanishi: (delokallanishi)



6π



7π



8π



tropiliya-kationi
(nobenzoid sistema)



sikloheptatrienil-radikal



sikloheptatrienid-ion
(antiaromatic sistema)

Benzol halqalarining o'zaro ikkita umumiy uglerod atomlari orqali tutashishi natijasida hosil bo'ladigan ko'p halqli arenlar ham Xyukkel qoidasiga bo'ysunadi, benzolga qaraganda aromatiklik xususiyatlari pastroq bo'lib, to'yinmaganlik xususiyatining ustunligi sezildi. Bunday sistemalarga naftalin, antratsen, fenantren va boshqalar misol bo'ladi:

Modda aromatiklik qoidasiga javob berishi uchun quyidagilarga ega bo'lishi kerak:


1. Molekulada π -elektron buluti bir xil taqsimlangan.

2. $(4n+2)\pi$ yaxlit elektronlarga ega siklik tuzilishli birikmalar (yassi to'g'ri burchakli olti burchak) $n = 0, 1, 2, 3$, π -elektronlar soni 6, 10, 14 va boshqalar bo'lishi mumkin (n halqa soni).

3. To'yinmagan siklik tuzilishli, fazoda tekislikda joylashgan.




benzol



piridin

$$n=1. (4 \cdot 1 + 2)\pi = 6\pi$$

$$5e^-(C) + 1e^-(N) = 6\pi$$




pirrol

$$4e^-(C) + 2e^-(N) = 6\pi$$




furan

$$4e^-(C) + 2e^-(O) = 6\pi$$




tiofen

$$4e^-(C) + 2e^-(S) = 6\pi$$



Naftalin

$$n=2. (4 \cdot 2 + 2) = 10\pi$$




Antrasen

$$n=3. (4 \cdot 3 + 2) = 14\pi$$


Elektrofil almashinish (o'rin olish) reaksiyalari Se

Bu tipdag'i reaksiyalarning barchasi dastlab elektrofil zarrachani hosil bo'lishi va uni aromatik halqaning π -elektron sistemasiga xujumi natijasida avval σ -, keyin σ -kompleks hosil bo'lishi bilan amalga oshadi. Oralig σ -kompleks tutash karbokation bo'lib bir necha rezonans strukturalarga ega, undagi sp^2 gibridlangan ugleroddagi musbat zaryad beshta sp^2 gibridlangan uglerod atomlari orasida xususan orta va para holatlarga taqsimlangan:



σ -kompleks beqaror zarracha, uning hosil bo'lishi barqaror 6π -elektron sistemasining buzilishi bilan amalga oshadi, u aromatiklik qoidasiga javob bermaydi. Shuning uchun σ -kompleksdan yana barqaror aromatik benzol halqasi proton ajralishi bilan oson hosil bo'ladi. Bunda oldin ikkinchi π -kompleks va keyin almashining aromatik birikma hosil bo'ladi.

Ya'ni



Elektrofil almashinish reaksiyalari qaytar reaksiyalar singari qaraladi. Ularning yo'nalishi energetik faktorlar (boshlang'ich va oxirgi energiyalari) bog' energiyasi va elektrofil reagentlarning nisbiy aktivliklari bilan aniqlanadi.

Benzol halqasida o'rinnbosarlarning yo'naltiruvchi ta'siri

Benzol halqasidagi o'rinnbosarlar keyingi kelayotgan o'rinnbosarlarni $-o$, $-p$, $-m$ holatlarga yo'naltiradi. O'rinnbosarlar elektrofil almashinish reaksiyalarini osonlashtiradi yoki qiyinlashtiradi. Agar halqada I-tur o'rinnbosari bo'lsa u faqat $-o$ va $-p$ holatlarga yo'naltiradi. Agar halqada II – tur o'rinnbosari bo'lsa u keyingi kelayotgan o'rinnbosarni faqat $-m$ holatga yo'naltiradi.

Benzol halqasida elektron zichlik bir xil taqsimlangan. Halqaga o'rinnbosarning kiritilishi bu bir xilikni (tekis taqsimlanishni) buzadi.

Benzol halqasida boradigan almashinish reaksiyalarining borishi quyidagi omillar bilan aniqlanadi:

- 1) ta'sir etuvchi reagentning tabiatiga qarab elektrofil yoki nukleofil;
- 2) reaksiyaning sharoiti bilan (harorat, katalizator, bosim va boshqalar);
- 3) benzol halqasidagi o'rinnbosarning tabiatiga qarab keyingi kelayotgan o'rinnbosarni aniq holatga yo'naltirish.



O'rin olish reaksiyalarida ikkinchi o'rribosarning joylashishi halqadagi oldingi o'rribosarning xarakteriga bog'liq.

O'rribosarlar tabiatiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

I – tur o'rribosarları (elektronodonor)

II – tur o'rribosarları (elektronoakseptor).


I – tur o'rribosarları elektronlarını benzol halqasiga beradi va orta hamda para holatlarda elektron bulut zichligini ko'paytiradi. Keyingi kelayotgan o'rribosarni orta va para holatga yo'naltiradi va benzol halqasidagi vodorod atomlarini almashtinishini osonlashtiradi. Bunday o'rribosarlar elektronodonor guruhlar yoki I-tur o'rribosarları deb yuritiladi..





(Ular +J yoki +M namoyon qiluvchi zarrachalar)

Galogen benzollar bilan boradigan reaksiyalar benzol gomologlariga nisbatan qiyinroq amalga oshadi. Sababi galogenlarning katta induktiv effekti (-J) ta'sirida elektrofil almashinish reaksiyaları qiyinroq amalga oshadi. Ularning ionlanish energiyasi benzolning ionlanish energiyasi bilan solishtiriladi.


II-tur o'rribosarları. Benzol halqasidan elektronlarni tortib oladi. Bu holatda orta va para holatlarda elektron zichlik kamayadi va meta holatda ko'payadi. Shuning uchun keyingi kelayotgan o'rribosarni u meta holatga yo'naltiradi. Bunday guruhlar elektronoakseptor guruhlar deb yuritiladi. Elektrofil almashinish reaksiyaları meta holatda sekinroq boradi va qattiqroq sharoit talab qilinadi. II-tur o'rribosarlariga misollar.



Ular -J va -M mezomer effekt namoyon qiluvchi zarrachalar II – tur o'rribosarları yoki orientantlari deb ataladi.



I.




II.

I. (δ^-) elektron zichlik ko'p

II. (δ^+) elektron zichlik kam

Halqada II – tur o'rribosari bo'lsa π - kompleks hosil bo'lishi qiyinlashadi, chunki σ – kompleksni destabillaydi (beqarorligini taminlaydi).


Umuman olganda yo'naltirish qoidasi nisbiy xarakterga ega bo'lib, reaksiyaning asosiy yo'nalishini ko'rsatadi. O'rinn olish reaksiyasida orta, para va meta izomerlarining aralashmasi hosil bo'ladi va ularning nisbati yo'naltirish qoidasiga mos keladi.




O'rribosarning tuzilishi va tabiatli aromatik halqada boradigan elektrofil o'rinn olish reaksiyasining tezligiga va tanlovchiligiga ta'sir qiladi.

Shunday o'rribosarlar borki ular aniq bir yo'naltirish effektiga ega emas (misol. $-\text{CHCl}_2$, $-\text{CCl}_3$) ular ta'sirida boradigan reaksiyalarda orta, meta, para izomerlar aralashmasi hosil bo'ladi.

Kelishilmagan va kelishilmagan yo'naltirish qoidasi: Ikkita bir xil turdag'i o'rribosar halqada bo'lganda uchunchi o'rribosarni yo'naltirish kuchliroq o'rribosar zimmasiga tushadi. Bu kelishilmagan yo'naltirish bo'lib qoladi.




Agar ikki xil turdag'i o'rribosari bo'lsa bunda ko'proq I-tur o'rribosari keyingi kelayotgan o'rribosarni yo'naltiradi.




Benzol halqasida I-tur o'rribosar bo'lgan paytda keyingi kelayotgan elektrofil zarracha faqat o- va p-holatlardagi vodorod atomiga almashina oladi.

Agar benzol halqasida II-tur o'rribosari bo'lsa keyingi kelayotgan (elektrofil zarracha) yoki o'rribosar faqat m-holatda vodorod atomiga almashina oladi.


Misol, agar halqada I-tur o'rribosari bo'lsa, elektrofil almashinish quyidagicha ketadi:




Nukleofil almashinish:




Agar halqada II-tur o'rinosbosar bo'lganda elektrofil almashinish quyidagicha boradi:




Nukleofil almashinish:



Kelishilgan va kelishilmagan yo'naltirish qoidasi.



kelishilgan yo'naltirish





kelishilmagan yo'naltirish

U yoki bu moddani sintez qilib olishda, reaksiya sharoitini tanlashda yo'naltirish qoidasining ahamiyati kattadir.




1. Almashinish reaksiyalariga misollar.

Benzol xlor, brom, yod bilan Lyuis kislotalari (FeCl_3 , FeBr_3 , AlCl_3 , AlBr_3) yoki ayrim paytda reaksiyon aralashmaga temir qipig'lарини solish bilan almashinish reaksiyaları amalga oshiriladi. Bunda mono-, di-, tri- yoki poligalogenbenzol hosilalari hosil bo'ladi. Lyuis kislotasi galogen atomlari bilan kompleks hosil qiladi, bu kompleksdagi galogen atomlari orasidagi bog' qutblangan bo'lib, chetki galogen atomi elektrofil sifatida halqaga ta'sir etadi.








Mexanizmi: (elektrofil almashinish).





2. Nitrolanish reaksiyasi (1 mol nitrat va 2 mol sulfat kislota aralashmasi nitrolovchi aralashma deb yuritiladi). Bu reaksiya nitrolash agentlari – kons. HNO₃, va kons. H₂SO₄(1:2), nitroniy tetraftorborat NO₂BF₄, atsetilnitrat CH₃COONO₂, N₂O₅ ta'sirida amalga oshirilishi mumkin. Benzol nitrolash aralashmasi bilan oson nitrolanadi.





Menxanizmi: $\text{HONO}_2 + 2\text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{NO}_2 + 2\text{HSO}_4^- + \text{H}_3\text{O}^+$




3. Sulfolanish reaksiyasi. Benzolni sulfolash uchun tutovchi sulfat kislota – kons. H₂SO₄• SO₃ ishlataladi. Bunda sulfolash agenti sulfat angidridi sifatida halqaga birikadi:



4. Alkillash reaksiyasi. Benzol halqasiga alkyl guruhini kiritish uchun alkilgalogenid va Lyuis kislotasi (Fridel – Krafts reaksiyasi), alken yoki spirit va mineral kislota ishlatalish mumkin. Fridel – Krafts bo'yicha alkillash katalizator sifatida FeCl₃, TiCl₄, SnCl₂, BF₃, ayniqsa ko'proq AlCl₃ ishlataladi.



5. Atsillash reaksiyasi Bu reaksiya Fridel – Krafts bo'yicha alkillash reaksiyasiga o'xshash bo'lib, benzolga atsilgalogenid $AlCl_3$ ishtirokida ta'sir ettiriladi va aralash yoki aromatik ketonlar hosil bo'ladi:




6. H- elektrofillari bilan boradigan elektrofil almashinish reaksiyalari.

Kuchli kislotalar arenlar bilan π – va σ – komplekslar hosil bo'lishi orqali vodorodning almashinishi sodir bo'ladi. Kuchli kislotalarga quyidagi aralashmalar kiradi:



Protonlanish va deyteroalmashinish reaksiyaları:




Agarda deyterosulfat kislota D_2SO_4 ta'sir ettirilsa vodorod deyteriga almashinadi.


Yuqoridagi barcha reaksiyalar elektrofil almashinish mexanizmida boradi. Bunda σ - va π -komplekslar hosil bo'ladi. σ - kompleks aromatiklik qoidasiga javob bermaydi, chunki unda to'yinganlik xarakteriga ega bo'lgan uglerod atomi bor. U sp^3 -gibrildilanishga ega.

Benzol halqasi uchun radikal o'rinni olish reaksiyaları


Aromatik qatorda radikal o'rinni olish reaksiyasi zanjirli reaksiya bo'lmasdan, balki u ikki radikal hujumdan iborat bo'ladi. Ulardan biri- birinchi tashqi Z radikalning to'yinmagan sistema (π – dublet) ga hujumi bo'lsa,



ikkinchisi vodorod atomini uzib chiqadigan ikkinchi radikalning hujumi bo'ladi:



Radikal o'rin olish qaysi bir jihatlari bilan elektrofil o'rin almashinishiga o'xshab ketsada, lekin reaksiyaning osonlikcha kechishi va uning oriyentasiyasi elektron effektlarga uncha bog'liq emas. Radikal hujum turli holatlardagi elektron zichlikka uncha bog'liq bo'lmasdan, balkim hosil bo'ladicidan oraliq radikalning rezonans stabillashuviga ko'proq bog'liq bo'ladi. Yagona bir qoida ishlab chiqish imkoniyati bo'lmasada va hujumning oriyentasiyasi reaksiya tipiga bog'liq ravishda o'zgarsada molekulada $-OCH_3$, $-NO_2$, $-CH_3$ -x gruppalarini bo'lganda orto- holatga hujum ustunlik qiladi.



Bunday ustunlik arillash, alkillash va gidroksillash reaksiyalarida yaqqol namayon bo'ladi.

Masalan: a) nitrobenzol va toluolni fenillash reaksiyasida:

	ortho	para	meta
	62	28	10
	67	14	19


b) nitrobenzol va anizolni metillash reaksiyasida

	ortho	para	meta
	66	28	6
	74	11	15


v) xlorbenzolni gidroksillash reaksiyasida

	ortho	para	meta
	45	30	25

Xuddi shuningdek naftalin va piridinda ham hujum asosan α - holatga yo'naladi.




Aromatik uglevodorodlarni arillash uchun $Ar-N=N+Cu$ diazoniy tuzi, $Ar-N=N-OH$ diazogidritlar, $Ar-\overset{NO}{N}-CO-CH_3$ N-nitrozoasetanilidlar, $Ar-N=N-N(CH_3)_2$ triazenlar, $(Ar-CO-O)_2$ diaroil peroksidlar kabi aril radikallari manbalaridan foydalaniladi. Bu moddalardan hosil bo'ladigan radikallar boshqa aromatik yadrotni yoki ko'pincha reaksiyada qo'llaniladigan erituvchiga hujum qiladi.




Aromatik birikmalarni radikal alkillash qo'pincha asilradikallar parchalanganda hosil bo'ladigan alkil radikallar yordamida amalga oshiriladi.



Asil radikallar CH_3-CO qo'rg'oshin asetat va sirkva kislota peroksididan hosil qilinadi.



Aromatik sistemalarni radikal alkillash elektrofil hujumga uchramaydigan geterosiklik birikmalarni alkillashda ishlatalishi mumkin.



Radikal gidroksidlanish vodorod peroksidga II valentli temir tuzlari (Fenton reaktiv) ta'sir ettirilganda hosil bo'ladigan hidroksil radikali ishtirokida amalga oshiriladi.



Aromatik yadroda boradigan bir qator o'r'in olish jarayonlari, xususan diazoniy tuzlari hosil bo'lishi bilan boradigan reaksiyalar ham radikal mexanizmda kechadi.

Benzol halqasi uchun nukleofil o'r'in olish reaksiyalari. S_N1 va S_N2 mexanizmlari. Oraliq bosqichda arin hosil bo'lishi bilan boradigan S_N- reaksiyalar

Aromatik qatorda boradigan nukleofil o'r'in olish reaksiyalariga quyidagi tipddagi jarayonlar kiradi:



X= galogen, OR, NO₂;


Y=OR⁻, N₃⁻, R₃N, NO₂⁻, RS⁻ va boshqalar

Reaksiya quyidagi uch mexanizmdan biri bo'yicha boradi:


1. Birinchi bosqichda C-X bog'ning dissosiasiyalanishi natijasida kation hosil bo'lishi va uning keyingi bosqichda nukleofil bilan ta'sirlashuvi bilan boradi (S_N1 mexanizm):



2. Reaksiya xuddi nukleofil sinxron jarayon sifatida kechadi. Bir bosqichda jarayonda C-X ning uzilishi va bir vaqtning o'zida C-Y bog'ning hosil bo'lishi sodir bo'ladi (S_N2 mexanizm):




3. Reaksiya aromatik halqaga nukleofil birikish orqali intermediat hosil bo'lishi bilan boshlanadi. Ikkinci bosqichda chiqib ketayotgan guruhnинг uzilishi va reaksiya mahsulotining hosil bo'lishi sodir bo'ladi. (Ad_N-E_N):




Alifatik qatordan farqli o'lar o'lgan sp²- gibratlangan uglerod atomidan chiqib ketayotgan guruhning uzilishi qiyin bo'lganligi bois reaksiya qiyinchilik bilan sodir bo'ladi.

Aromatik birikmalarda C-X bog'ning dissosiasiyasi natijasida aril kationi hosil bo'lishi kerak. Uning barqarorligi sp²- gibratlangan holatda bo'lgan uglerod atomining elektronmanfiyligi katta bo'lganligi bois juda past bo'ladi, chunki musbat zaryadning aromatik halqaga delokallashuvi mumkin bo'lmaydi. Erkin orbital aromatik yadroning π -orbitallariga nisbatan ortogonal holat bo'lib, ular bilan ta'sirlasha olmaydi.





Shu sababli aromatik qatorda S_N1 o'r'in olish faqatgina oson uzuluvchan guruhlar bo'lгandagina sodir bo'ladi. Bunga yorqin misol sifatida diazobirikmalarining geterolitik uzilishini keltirish mumkkinki, unda reaksiya yuqori barqarorlikka ega bo'lgan azot molekulasining hosil bo'lishi bilan kechadi va jarayon termodinamik jihatdan yaxshi hisoblanadi.




Diazoniy ionlarining parchalanish reaksiyaları S_N1 jarayonlarning hamma xarakterli xususiyatlarini o'zida mujassamlantirgan: parchalanish birinchi tartibli reaksiya sifatida kechadi, reaksiya tezligi reaksiyon sistemada ishtirok etayotgan nukleofillarga bog'liq emas, hattoki ular oxirgi mahsulotning hosil bo'lishiда ishtirok etsada. Bularning hammasi odadagi S_N1 reaksiyaning kinetik sxemasiga muoqiq keladi.


Elektrodonor o'rribosarlar aromatik yadroda elektron zichlikni oshirgani bois hosil bo'lgan kationni barqarorlashuviga sabab bo'lib, reaksiya tezligini oshirishi, elektronakseptor o'rribosarlar esa aksinchalik susaytirishi kerak. Bu xulosalar meta- aralashgan birikmalar uchun eksperimental ma'lumotlar bilan tasdiqlangan.



Shuni eslatib o'tish joizki para holatga joylashgan, +M effekt beradigan o'rınbosarlar o'rish olishni sekinlashtiradi.




Shu sababli dastlabki modda barqaror bo'ladi va reaksiya tezligi susayadi.



Umuman olganda S_N1 o'rin olish reaksiyaları aromatik birikmalarda juda kam uchraydi.

Diazoni guruhi turli xil o'r'in bosarlar bilan o'r'in almashinishi mumkinkim, ularni aromatik yadroning kerakli holatiga kirdizish imkonii mavjud bo'ladi




S_N2 mechanism


Ko'pchilik hollarda nukleofil o'rın olish reaksiyalarida reaksiya tezligi nukleofilning konsentrasiyasi va tabiatiga bog'liq bo'lib reaksiya ikkinchi tartibga ega bo'ladi. Bu holda reaksiya bir bosqichda yoki oraliq intermediatning hosil bo'lishi bilan kechishi mumkin.

Eksperimental ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki reaksiya nukleofil assosiativ jarayon sifatida ikki bosqichli mexanizmda boradi. Buning yorqin dalili sifatida aromatik sistemaga nukleofil reagent birikkanda hosil bo'ladigan barqaror hosilalarni ajratib olinganligini keltirish mumkin. Odatda bu hosilalar Meyzengeymer hosilalari deb ataladi

Meyzengeymer komplekslarining tuzilishi o'rganilgan bo'lib, ular σ -komplekslar hisoblanadi. Hozirgi vaqtida turli xil tuzilishli σ -komplekslar kimyoiy va spektral usullar yordamida aniqlangan. Masalan, 2,4,6-trinitroanizol kaliy metilat bilan tuz hosil qiladikim, unda ikkita metoksi guruhlar teng qiyamatli bo'ladi.




Jarayonning ikki bosqichda borishligini qo'shimcha isboti sifatida reaksiyada nukleofil rolida aminlar qo'llanilganda olingan natijalar tasdiqlaydi.




Bu holda nukleofil bilan ta'sirlashish natijasida svitter -ion II hosil bo'ladi. Chiqib ketayotgan guruhning uzilishi uchun oldin proton uzilishi kerak, chunki fenoksiguruuhning III dan uzilishi II dan uzilishidan ko'ra tezroq sodir bo'lishi kerak. Shu sababli reaksiyaga asoslar katalizatorlik qilish mumkin. Bu narsa ikki holatda amalgal oshishi mumkin.

Birinchidan svitter - iondan protonning uzilishi reaksiya tezligini belgilovchi bosqich bo'lsa, ikkinchidan protonning uzilishi reaksiyaning tez amalga oshuvchi bosqichi bo'lib, fenoksiguruuhning uzilishi eng sekin bosqichdan iborat bo'ladi. Nukleofil o'r'in almashinishing birlamchi va ikkilamchi aminlar nukleofil rolida ishlataliganda xususiy va umumiylasosli kataliz xarakterli bo'ladi. Uchlamchi aminlar va anionli nukleofillar bilan reaksiyalarda asosli kataliz qo'llanilmaydi. Shunday qilib yuqorida ko'rib chiqilgan reaksiyalar qo'yidagi mexanizm bo'yicha kechadi.




Agar molekula aktivlashtiruvchi guruhlar tutmasa, benzol yadrosi bilan bog'langan galogen atomining o'r'in olmashinishi juda qiyin kechadi. Lekin reaksiya kuchli qutbli aproton erituvchilar (DMSO, DMFA va boshqalar) da o'tkazilganda oson kechadikim, ular anionlarning aggressivligini oshiradi.




Bu reaksiya ikki bosqichli (eliminlash va birikishni) o'z ichiga olib, oraliq mahsulot sifatida arin hosil bo'ladi.

O'r'in olishning bu turi metall amidlari kabi kuchli asoslar ishlataliganda ko'p uchraydi: reaksiyaning yo'nalishi nukleofil reagentning chiqib ketayotgan guruhga nisbatan orto-holatga o'rnashishi bilan isbotlangan.



Erituvchilar reaksiyaga kirishuvchi moddaning nukleofillik (elektrofillik) xossasiga kuchli ta'sir qo'rsatadi. Nukleofil zarrachani erituvchi qancha kam solvatlagan va uning elektron jufti qancha oson beriluvchan bo'lsa, u shuncha yuqori aktivlikka ega bo'ladi. Agar ion o'lchami va elektronga moyilligi hisobga olinadigan bo'lsa galogenid ionlarning nukleofilligi $I^- > Br^- > Cl^- > F^-$ tartibdan o'zgarishi zarur, chunki ularning elektronga moyilligi yoddan fторга tomon kuchayib boradi. Gidroksil tutuvchi protonli erituvchilar galogenid ionlarning yuqoridagi ketma-ketligi saqlanib qoladi: protonli erituvchilar o'lchami kichik F^- ni kuchli o'rab oladi va natijada uning nukleofilligi keskin kamayadi. Hajmi kichik anionlar vodorod bog'lar vujudga kelishi hisobiga protonli erituvchilarde aproton erituvchilardagiga nisbatan $10-10^{10}$ marta kuchli solvatlanadi. To'rtta aniondan fторga nisbatan eng mustahkam vodorod bog'lar hosil qiladi. Aproton erituvchilarde galogenid – anionlarning nukleofilligi teskari tartibda o'zgaradi.



Erituvchilarda alifatik va aromatik qatordagi nukleofil o'r'in olish reaksiyalari tezligiga bir xil darajada kuchli ta'sir ko'rsatadi. Masalan:



Erituvchi:	Reaksiyaning nisbiy tezligi
Metanol	1
Formamid	6.3
Nitrometan	3000
DMSO	8000
Asetonitril	8000
DMFA	32000
Aseton	80000
N,N-diasetilamid	100000
Geksametilfosforotriamid	200000

Nazorat savollari

1. Xyukkelning aromatiklik qoidasi to'g'risida tushinchcha bering.
2. "Nobenzoid" aromatik uglevodorodlar to'g'risida yozma ma'lumot bering.
3. Aromatik halqada kechadigan elektrofil o'r'in olish reaksiyalariga misollar keltiring.
4. Benzol halqasi uchun radikal o'r'in olish reaksiyalariga misollar yozing.
5. Aromatik uglevodorodlarga nukleofil o'r'in olish reaksiyalarini konkret misollarda ifodalang.

Mavzu N6. MOLEKULYAR QAYTA GURUHLANISH

I. Mavzu rejası:- Molekulyar qayta guruhlanish bilan tanish tirish;

- Alifatik qatordagi qayta guruhlanish bilan tanish tirish;

- Nukleofil qayta guruhlanish (aldegido-keton, asilloin, benzil, Demyanov, Vagner, Nametkin qayta guruhlanishlari) bilan tanish tirish;

- Volf, Bekman, Goffman, Lossen, Kursius, Shmidt qayta guruhlanishlari bilan tanish tirish;

II. Tayanch iboralar: Molekulyar, qayta guruhlanish, alifatik, nukleofil, aldegido-keton, asilloin, benzil, Demyanov, Vagner, Nametkin qayta guruhlanishlari). Volf, Bekman, Goffman, Lossen, Kursius, Shmidt.

III. Maqsadi: Molekulyar qayta guruhlanish to'g'risida; alifatik qatordagi qayta guruhlanish to'g'risida; nukleofil qayta guruhlanish (aldegido-keton, asilloin, benzil, Demyanov, Vagner, Nametkin, Volf, Bekman, Goffman, Lossen, Kursius, Shmidt qayta guruhlanishlari to'g'risida tushinchalar berish: -

IV. Dars o'tish vositalari: O'UM, ma'ruza matni, kompyuter slaydlar.

V. Dars o'tish usuli: ma'ruza, Pinbord, aqliy hujum.


VI. Mayzuning mazmuni:

Qayta guruhlanishlarning sinflanishi

Ionli qayta guruhlanishda ko'chayotgan guruh ta'sirlashayotgan molekulani tashlab chiqib ketmasa molekulyar tabiatga ega bo'ladi. Agar ko'chayotgan guruh dastlabki molekuladan xuddi shunday yoki dastlabki molekulaga o'hshash boshqa molekulaga ko'chib o'tsa molekulalararo tabiatga ega bo'ladi.

Agar qayta guruhlanish elektr zaryadli yoki neytral aktiv elektrondefisit zaryadlar orqali sodir bo'lsa elektrofil xarakterga ega bo'ladi. Asosiy elektrofil zarrachalar bo'lib karbokationlar – C⁺, karbenlar C₂, imeniy ionlari =N⁺, oksenyi ionlari O⁺ va nitrenlar – N hisoblanadi. Qayta guruhlanishlar shuningdek ko'chib o'tayotgan H⁺, X⁺, NO₂⁺, NO⁺ kabi nukleofil zarrachalar hisobiga sodir bo'lsa nukleofil xarakterga ega bo'ladi.

Qayta guruhlanishlar ko'chayotgan guruhlar bo'yicha yoki dastlabki va oxirgi mahsulotlar bo'yicha klassifikatsiyaланishi mumkin. Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan turli xil vaziyatlardan quyidagi bo'lishi mumkin:



Uglerod qoldig'ining bir uglerod atomidan boshqa uglerod atomiga ko'chib o'tishi skletli qayta guruhlanish hisoblanadi.

Uglerod qoldig'ining uglerod atomidan geteroatomga ko'chishi geteroatomning zanjirga kirishi bo'lib, u skletning degradatsiyasiga muvofiq keladi.

Uglerod qoldig'ining geteroatomdan uglerod atomiga ko'chib o'tishi kondensasiya reaksiyasiga to'g'ri keladi.

Ugleroddan geteroatomlarning boshqa geteroatomga ko'chib o'tishi natijasida hosil bo'ladi Z-Z bog' energetik jihatdan noqulay bo'lib, buning aksicha ko'chib o'tish osonlikcha sodir bo'ladi.

Protonning ko'chib o'tishga protropiya deyiladi. Odatda bu jarayon qaytar bo'ladi.


Alifatik qatordagi qayta guruhlanish

Bu turdag'i qayta guruhlanishlar musbat zaryadlangan $-Z^+$ yoki neytral Z elektronodefisitsitli aktiv zarrachalarning ichki molekulyar hujumi natijasida sodir bo'ladi. Uglerod qoldig'ining ko'chib o'tishi ko'chib o'tayotgan guruh konfiguratsiyasining saqlanishi orqali kechadi.

1) Imeniy $=N^+$ ioni ishtirotidagi qayta guruhlanish.


Imeniy ionlari $=N^+$ azot atomiga birikkan OH, OAr, OTs, X, N_2^+ kabi guruhlarning anionid uzilishi natijasida hosil bo'ladi. Bu ionlardagi elektron etishmovchilik qo'shni guruhga elektrofil hujum uyuştirishga sabab bo'ladi. Oksim va gidrozonlardan kelib chiqqan holda azotning kiritilishi amidlar hosil bo'lishiga olib keladi. Uzilish va ko'chib o'tish sinxron tarzda sodir bo'lib, ko'pincha katta hajimga ega bo'lgan chiqib ketayotgan nukleofil zarracha nisbatan anti-holatni egallaydi.

Oksimlarning amidlarga Bekman bo'yicha qayta guruhlanishi quyidagicha: OH ning kislotali muhitda uzilishi, imin kationining ko'chib o'tishi va hosil bo'lishi, suvni biriktirib olishi va proton izomerlanish orqali kechadi:




2) Nitrenlar -ishtirotida boradigan qayta guruhlanishlat

Neytral aktiv zarracha bo'l mish $-N$ elektron qobig'ida elektron etishmasligi bois elektrofil xarakterga ega bo'ladi. Nitrenlar elektrofil va nukleofil zarracha sifatida α -elimenlanishda uzilib chiqadigan guruhlar tarzida vujudga keladi. Ular amidlarni aminlarga Goffman qayta guruhlanishida ishtirot etadi:




Iminlar hosil bo'lishiga sabab bo'lувчи асилланмаган нитренларнинг hosil bo'lishi, N-gалоген аминларнинг исхорлар билан ўқи гидроксиламинларни кислоталар билан та'siri natijasida yozinki azidlarni o'z-o'zidan parchalanishida kuzatiladi:




3) Okseniy O^+ -ioni ishtirokidagi qayta guruhlanishlar


Kislород атоми киргизишнинг турли усуллари гидроопероксидларга кислоталар та'sir ettiliganda hosil bo'ladigan okseniy O^+ ioni ishtirokida amalg'a oshadi:



Kumohing гидроопероксида кислотали мухитда parchalanganda fenil guruhining uglerod atomidan kislород атомига ko'chib o'tishi sodir bo'лади:



Karbktion suvni бирктириб полуасеталга аylanadi. Poluasetal гидролизга uchrab fenolva aseton hosil bo'лади.




Nukleofil qayta guruhanish (aldegidoketon, asilloin, benzil, Demyanov, Vagner, Nametkin qayta guruhanishlari)


Nukleofil mexanizm bo'yicha uglerod atomining geteroatomga ko'chib o'tishi bilan boradigan qayta guruhanish onda-sonda sodir bo'ladi. Bunga misol tariqasida Dakin usuli bo'yicha salitsil aldegidning fenolga aylanishini keltirish mumkin. Bu jarayon nukleofil qayta guruhanish hisobiga yuz beradi.

Aldegidoketon qayta guruhanish


Siklik yenolyatning ichki molekulyar hujumi natijasida hosil bo'lgan α -oksid oksianion elektron justini α -holatga hujum qilib kirgizish xususiyatiga ega bo'ladi




Kanisaro reaksiyasi bo'yicha glioksaldan α -oksisirka kislotasi hosil bo'lishi ham nukleofil mexanizmda kechadi:




Asilloin qayta guruhanish: asil guruhining ko'chib o'tishi ko'pincha azot va kislorod atomlari o'rtasida yuz beradi $N\rightarrow O$ yo'nali shida ko'chib o'tish kislotali muhitda amalga oshadi. α -(N-asilamino)spirtlarning izomerlanishi shu tarzda kechadi: avval karbonil guruhning protonlanishi, keyin oksazolin halqasining hosil bo'lishi va o'z navbatida ochilishi ro'y beradi.




Ishqoriy muhitda $N\rightarrow O$ migratsiya amalga oshadi: aminoguruh murakkab efir guruhining nukleofil o'rinni almashishiga sabab bo'ladi:




Benzil qavta guruhlanishi: glioksalning α -oksisirka kislota taga aylanishiga o'xshash, benzilning asoslar katalizatorligida benzil kislota anioniga aylanishi karbanionning birkishi bilan boradigan ichki molekulyar qavta guruhlanishiga misol bo'ladi. Glioksaldan farqli o'laroq (glioksalda vodorodning ko'chib o'tishi sodir bo'lad), bunda fenil guruhining ko'chib o'tishiro'y beradi:




Demyanov qavta guruhlanishi: alisiliklik aminlarga nitrit kislota ta'sir ettiliganda halqaning kengayishi yoki qisqarishi bilan boradigan qavta guruhlanish reaksiyalarini retrapinakolin misolida N.Ya. Demyanov o'rgangan va aniqlagan. Halqaning kengayishi:




Halqaning qisqarishi:



Vagner-Meervevn qayta guruhanishi: neopentil xlorid(I) gidrolizga uchraganda reaksiya $\text{S}_{\text{N}}1$ mexanizm bo'yicha kechib neopentil spirti (III) hosil bo'lishi kerak edi.




Aslida esa neopentil spirti hosil bo'lmaydi. Bunga sabab shuki dastlab hosil bo'lgan karboniy ioni (II) qayta guruhanishga uchrab uchlamlchi karboniy ioniga (IV) aylanadi. Uning gidrolizi natijasida uchlamlchi amil spirti (V) hosil bo'ladi:



Hosil bo'lgan uchlamlchi karboniy ioni (IV) o'zidan proton ajratib chiqarib olifinga ham aylanihi mumkin. Darhaqiqat tajriba shuni ko'rsatadiki, reaksiya natijasida oz miqdor 2-metilbuten-2 ham hosil bo'adi. Bu xildagi qayta guruhanish Vagner-Meerveyn nomi bilan ataladi.


Nametkin qayta guruhanishi: akademik S.S. Nametkin tomonidan ochilgan ushbu qayta guruhanish retrapinakolin tipiga mansub bo'lib, kamfengidroxloridning izo- kamfengidroxloridga aylanishi - izomerlanish orqali yuz beradi:



Bu qayta guruhlanishda C_2 dagi uglerod radikali bilan C_3 dagi galogen (Cl) yoki gidrosil guruhning o'mni almashadi, ya'ni izomerlanish sodir bo'ladi. Agar C_3 dagi radikallardan birinig o'mnida vodorod atomi bo'lsa, qayta guruhlanish jarayonida rasema ($D+L$ aralashma) vujudga kelgani bo's dastlabki izomer (D yoki L) ning optik aktivligi yo'qoladi.


Volf, Bekman, Goffman, Lossen, Kursius va Shmidt qayta guruhlanishlari

Volf qayta guruhlanishi: α -diazoketonlardan (I) azot ajralib chiqishi bilan boradigan bu reaksiya natijasida o'ta reaksiyon qobiliyatga ega bo'lgan ketenlar (III) hosil bo'ladi:




Bunda hosil bo'ladigan oraliq birkma (II) karboniy ioni bo'lmasdan, balkim karben deb nomlanuvchi elektrondefisit birkma hisoblanadi. Undagi R guruhining o'z atrofidagi elektronlari bilan ko'chib o'tishi yuzberadi.

Diazo metan va kislota angidridi ta'sirlashuvi orqali diazoketon olish usuli Volf qayta guruhlanishiga katta amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki u Arndt-Eystert usulining xususiy ko'rinishi bo'lib, uning yordamida kislotalar yuqori gomologlariga aylandiriladi:




Suvli eritmalarda ketenga suvning birkishi kislota hosil bo'lishiga olib kelsa, reaksiya ammiyakli yoki spirtli eritmada o'tkazilganda tegishli amid yoki efir hosil bo'ladi.

Bekman qayta guruhlanishi: uglerod atomidan R guruhining azot atomiga ko'chib o'tishi bilan boradigan qayta guruhlanishlar ichida katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan, keton oksimlarning N-aratashgan amidlarga aylanishi bilan boradigan Bekman qayta guruhlanishi hisoblanadi.




Bu reaksiya H_2SO_4 , P_2O_5 , SO_3 , $SOCl_2$, BF_3 , PCl_5 va boshqa katalizatorlar ishtiroyida sodir bo'lib, nafaqat oksimlarning o'zi bilan, balkim ularning O-asil hosilalari bilan amalg oshadi. Odatdag'i sharoitda faqat ba'zi aldoksimlar qayta guruhlanishga uchraydi, lekin katalizator sifatida polifosfat kislotaning ishlatalishi bu

reaksiyada qatnashadigan aldoksimlar sonini ancha kengaytiradi. Bu qayta guruhlanishning qiziq tomoni shundan iboratki R yoki R' guruhlardan qaysi birining ko'chib o'tishi ularning tabiatiga bog'liq bo'lmay balkim ularning fazoviy joylashuviga bog'liq bo'ladi. Shu narsa aniqlanganki amalda doimo azotga anti - holatda turgan guruh ko'chib o'tadi:




R guruhning OH guruhiga to'g'ridan to'g'ri almashmasligi bezofenon oksimning o'zida ^{18}O saqlagan suvli muhitda bezanilidga aylanishi bilan isbotlangan:



Dastlabki oksim ham, hosil bo'ladigan anilid ham nishonlangan suvda o'z kislородини ^{18}O izotopiga almashmaganligi sababli C_6H_5 va OH o'rтасидаги oddiy ichki molekulyar almashinish ^{18}O izotopini reaksiya mahsulotining tarkibiga kirishga yo'l bermaydi. Biroq ma'lum bo'lishicha hosil bo'lgan benzanilid dastlabki suvda bo'lgan miqdordagi ^{18}O izoto'pini o'z tarkibiga tutar ekan. Bu narsa shundan dalolat beradiki, qayta guruhlanish OH guruhning uzilishi va keyingi bosqichda suv bilan ta'sirlashishi natijasida kislород tutgan guruhning birikishi bilan yuz beradi.


Bekman qayta guruhlanishi ichki molekulyar qayta guruhlanish bo'lib, unda R guruh doimo molekulaga bog'langan holatda bo'ladi.

Bekman qayta guruhlanishi yordamida sanoatda tola hosil qiluvchi polimer polikapramid (kapron) sintezi amalga oshiriladi:




Goffman, Kursius va Lossen qayta guruhlanishlari


Goffman qayta guruhlanishi: kislota amidining ishqorli muhitda gipobromid ta'sirida bitta uglerod atomini yo'qotib aminga aylanish reaksiyasi misol bo'ladi:



Reaksiya tezligini belgilovchi bosqich bo'lib, III birikmadan Br ning ajralib chiqishi hisoblanadi, lekin shunday ham bo'lishi mumkinki Br ning ajralishi va R guruhning ko'chib o'tishi bir vaqtning o'zida sodir bo'ladi. Shu sababli R guruhning elektronodonor hususiyati qancha yuqori bo'lsa reaksiya tezligi ham shuncha yuqori bo'ladi. Bu taxmin yadrosiga elektronodonor o'rinsbosarlar tutgan benzamid larning parchalanish reaksiyalarini o'rganish orqali isbotlangan. Goffman qayta guruhlanishiiga ikkita reaksiya-Kursius bo'yicha kislotalarinig qayta guruhlanishi va Lossen bo'yicha gidroksam kislotalarining parchalanishi o'xshaydi. Chunki bu ikkala reaksiya natijasida ham aminlar hosil bo'lib, reaksiya oraliq birikma-izosianatlar hosil bo'lishi orqali kechadi:




Odatda Lossen reaksiyasini erkin gidroksam kislotalar bilan o'tkazilmasdan, ularning O-asil hosilari bilan o'tkaziladi kim, bunda reaksiya mahsulotining unumi ancha yuqori bo'ladi. Kursius reaksiyasida azidlardagi natriy nitrit va kislotata'sir ettirib olinadi. Agar reaksiya suvli emas, balki spirtli eritmada o'tkazilsa uretanlar hosil bo'ladi:




Uglerod skletining o'zgarishi bilan boradigan yuqorida keltirilgan hamma qayta guruhlanishlarda ko'chib o'tuvchi R guruh o'z konfigurasiyasini saqlab qoladi. Bu reaksiyalarning yana bir ummumiy tonomi shundan iboratki, agar bitta erituvchida ikkita bir biriga o'xshash birikmalarning qayta guruhlanishi o'tkazilsa hech qachon aralash mahsulotlar hosil bo'lmaydi. Bu shundan dalolat beradiki, bu reaksiyalar ichki molekulalar kechadi.

Shimidt qayta guruhlanishi. α -vodorod atomiga ega bo'lgan aldegidlar (I) asoslar bilan ta'sirlashib barqaror karbanionlarni (II) hosil qiladi. Hosil bo'lgan karbanion boshqa aldegid molekulasining karbonil atomiga hujum qilib oxir oqibatda aldon (III) hosil bo'ladi:




Bunda to'g'ri va teskari reaksiyalar o'rtasida konkurensiya bo'lib, to'g'ri reaksiyaning tezligi teskari reaksiyanikidan ustunlik qiladi.

Asetonning (IV) shunga o'xshash ketospirtga (VI) aylanishi birmuncha sekin boradi:




Shunga o'xshash alifatik nitrobirkalmalarning asoslar katalizatorligida karbonil guruhiga birikish reaksiyalari sintetik kimyoda keng ko'lagma ishlataladigan reaksiya hisoblanadi:



Shuningdek reaksiya sharoitida aldegidning o'zidan ham karbanion hosil bo'lib, aldol kondensasiyasi sodir bo'lishi mumkin. Lekin nitrobirkma karbanioni etarlicha barqaror bo'lib, osonlikcha hosil bo'ladi va reaksiyaning yuqoridagi sxema bo'yicha kechishini ta'minlaydi.

Quy'i alifatik aldegidlarda kuchli asoslar ta'sirida avval karbanionning birkishi va so'ngra degidratatsiya sodir bo'lib, natijada past molekulyar og'irlikka ega bo'lgan polimerlar hosil bo'ladi. Agar reaksiyani aldol hosil bo'lish bosqichida to'xtatilishi zarur bo'lsa K_2CO_3 kabi kuchsiz asoslar ishlatiladi. Preparativ jarayonlarda ishlatiladigan karbanionning birkishi bilan degidratlanish orqali boradigan reaksiyalarga Klayzen-Shmidtning aromatik aldegidlardan bilan alifatik aldegid yoki ketonlar bilan 10% li ishqor eritmasi ishtirokida kondensatsiyadan reaksiyalarini kirdi:



Alifatik aldegidlarda o'zaro kondensatsiya ham ro'y berishi mumkin.

Aromatik halqada elektronodonor o'rincosarlarning bo'iishi karbonil guruh ugorod atomidagi musbat zaryadni susaytiradi. Shu sababli $p\text{-CH}_3\text{O-C}_6\text{H}_4\text{CHO}$ benzaldegidiga nisbatan 7 marta sekin tasirlashadi.

Nazorat savollari

- Qayta guruhlanish qanaqa turlarga bo'linadi?
- Alifatik qatorda qayta guruhlanishga misollar keltiring.
- Aldegido-keton, asilloin, benzil qayta guruhlanishlarini misollar bilan tushintirib bering.
- Demyanov, Wagner, Nametkin qayta guruhlanishlari to'g'risida tushinchabering.
- Volf va Bekman qayta guruhlanishlarini misollar orqali ifodalang.
- Goffman, Kursius va Lossen qayta guruhlanishlari qanaqa o'xshashlikka ega?
- Klayzen-Shmidtning qayta guruhlanishi haqidagi tushinchabering.

Foydalaniłgan adabiyotlar

1. Мате, Р.Панико. Курс теоретических основ органической химии. Издательство “Мир” Москва 1975.
2. А.С. Днепровский, Т.И.Темникова. Теоретические основы органической химии. Ленинград, “Химия” Ленинградское отделение 1991.
3. S.Iskandarov, B. Sodiqov. Organik ximiya nazariy asoslari. Toshkent-“Mehnat”-1987 у.
4. П. Сайкс. Механизмы реакций в органической химии. Издательство “Химия” Москва 1971.
5. Нейланд О.Я. «Органическая химия» Москва «Высшая школа» -1990.
6. Г. Беккер. Введение в электронную теорию органических реакций. Издательство “Мир” Москва 1977.Ж.
7. A.G. Mahsumov,A.J. Jo’raev. Bioorganik kimyo. “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi ” Davlat ilmiy nashriyati Toshkent, 2007.
8. Х.М. Шахидоятов, Х.У. Ходжаниязов Функционально-замещенные пиримидины. Ташкент -2010.

MUNDARIJA

So'z boshi	3
I. Kimyoviy tuzilish nazariyasi	4
II. To'yining uglerod atomidagi o'rIN olish reaksiyalari	15
III. To'yinmagan birikmalarga birikish reaksiyalari	22
IV. Siklo birikush reaksiyalari	32
V. Aromatik qatordagi o'rIN olish reaksiyalari	45
VI. Molekulyar qayta guruhlanish	61
Foydalanilgan adabiyotlar	72

ORGANIK KIMYO NAZARIY ASOSLARI

(Uslubiy qo'llanma)

Muharrir **G.Rahimova**

Musahhih **M.Ro'ziboyev**

Tex.muharrir **Z.Meliyev**

2008-yil 19-iyun 68-buyruq.

2012-yil 25-sentabrda noshirlik bo'limiga qabul qilindi.

*2012-yil 20-oktabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 60x84/ 1,16. "Times New Roman" garniturası. Ofset qog'ozi.*

*"RIZOGRAF" uskunasida bosildi. Sharqli bosma tabog'i 4,5.
Nashriyot hisob tabog'i 3,5. Adadi 100 nusxa 93-buyurtma.*

SamDU bosmaxonasida chop etildi.
140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.